

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

# **“TARIX FANI VA TA’LIMINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALRI”**

**MODULI BO‘YICHA  
O‘QUV–USLUBIY MAJMUA**

**Buxoro – 2024**

Modulning ishchi dasturi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim vazirligining 2024-yil 6-sentabrdagi 333- sonli sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan namunaviy o'quv reja va dastur asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur ishchi o'quv dasturi Buxoro davlat universiteti Kengashining 2024 - yil 24-avgustdagi 9-sonli yig'ilish qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi: **K.J.Rahmonov**—BuxDU Jahon tarixi kafedrası dotsenti t.f.n.

Taqrizchi: **Sh.A.Hayitov** - BuxDU Jahon tarixi kafedrası professori,  
t.f.d.

## MUNDARIJA

|                                                                           |    |
|---------------------------------------------------------------------------|----|
| I. ISHCHI DASTUR .....                                                    | 4  |
| II.MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM<br>METODLARI..... | 11 |
| III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....                                | 14 |
| III. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....                                 | 21 |
| IV. GLOSSARIY .....                                                       | 49 |
| V. ADABIYOTLAR RO‘YXATI:.....                                             | 71 |

## **LISHCHI DASTUR**

Ushbu ishchi dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar hamda namunaviy dastur mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ishchi dastur doirasida berilayotgan mavzular orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan tarix yo‘nalishi pedagoglarni tarix fanining dolzarb muammolariga oid bilimlar darajasini kengaytirish va chuqurlashtirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari ta’minlanadi.

### **Modulning maqsad va vazifalari**

**Modulning maqsadi** O‘quv jarayonini ilm-fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish .

**Modulning vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- O‘qituvchining mahoratiga qo‘yiladigan talablardan keng foydalanish;
- o‘qituvchi sifatida ijodiy fikrlashini rivojlantirish;
- darsning texnologik xaritasini va dars modellarini tuzish;
- tarix fanlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil qilish va o‘tkazish;
- muammoli metodlar asosida dars ishlanmalarini tayyorlash;

## **Modul yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo‘yiladigan talablar:**

“Tarix fani va ta’limini takomillashtirish strategiyalari” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida

### **Tinglovchi:**

- tarixni o‘qitishning innovatsion ta’lim muhitini loyihalashtirishni;
- o‘quvchilarni tarixga oid kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashni loyihalashtirishni;
- ta’limda ilg‘or xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlil qilishni;
- pedagogning shaxsiy va kasbiy faoliyatidagi axborot maydonini takomillashtirishni;
- multimediali elektron o‘quv resurslar turlari va ularni yaratishni **bilishi** kerak.

### **Tinglovchi:**

- - Tarix fanlarini o‘qitishda empirik va nazariy metodlaridan foydalanish;
- ma’ruzalar va ularning turlaridan keng foydalanish;
- o‘qituvchining mahoratiga qo‘yiladigan talablardan keng foydalanish;
- o‘qituvchi sifatida ijodiy fikrlashini rivojlantirish;
- darsning texnologik xaritasini va dars modellarini tuzish;
- tarix fanlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil qilish va o‘tkazish;
- ma’ruza va yangi mavzularni tushuntirishda tarixiy tadqiqot metodlarini qo‘llash;
- ta’lim jarayoni kasbiy yo‘nalganligini ta’minlash **ko‘nikma va malakalariga** ega bo‘lishi lozim.

### **Tinglovchi:**

- tarix fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan ko‘rgazma va tarqatma vositalarini tayyorlash;
- muammoli metodlar asosida dars ishlanmalarini tayyorlash;

- o‘quvchilar bilimini nazorat qilish va baholashda xalqaro baholash talablaridan foydalanish;
- o‘quvchilarning kasbiy layoqat, moyillik, qiziqish hamda qobiliyatlarni aniqlash;
- tarix fanlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni rejalashtirish;
- kasbga yo‘naltirishda o‘quvchi shaxsiga individual yondashish *kompetensiyalariga* ega bo‘lishi lozim.

### MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

| №    | Modul mavzulari                                                                       | Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat |                            |          |                   |                 |
|------|---------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------|----------------------------|----------|-------------------|-----------------|
|      |                                                                                       | Hammasi                              | Auditoriya o‘quv yuklamasi |          |                   | Mustaqil ta’lim |
|      |                                                                                       |                                      | Jami auditoriya soati      | jumladan |                   |                 |
|      |                                                                                       |                                      |                            | Nazariy  | Amaliy mashg‘ulot |                 |
| 1.   | Tarix faninning zamonaviy konsepsiyalari                                              | 2                                    | 2                          | 2        |                   |                 |
| 2.   | Tarix ta’limini tashkil etishning konseptual asoslari                                 | 2                                    | 2                          |          | 2                 |                 |
| 3.   | Sharq tarixnavisligida tarix fani ilmiy-nazariy masalalarining zamonaviy tadqiqotlari | 2                                    | 2                          |          | 2                 |                 |
| JAMI |                                                                                       | 6                                    | 6                          | 2        | 4                 |                 |

## **NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-MAVZU: Tarix faninning zamonaviy konsepsiyalari (2 soat ma’ruza)**

Tarix faninning zamonaviy konsepsiyalari. Tarixiy xotira, tarixiy tafakkur mazmuni va zarurati. Tarixiy manbalar va tarixiy dalil. Dalil va uning ilmiy-tahliliy masalalariga oid ayrim ilmiy-nazariy qarashlar.

## **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-AMALIY MASHG‘ULOT: Tarix ta’limini tashkil etishning konseptual asoslari. (2 soat)**

Tarix fanini takomillashtirish istiqbollari. Tarix ta’limini tashkil etishning konseptual asoslari. Tarixiy bilishning o‘ziga xosligi va tarixiy bilish tamoyillari. Ijtimoiy va tabiiy fanlar uslublarining o‘zaro bog‘liqligi. Tarix fanining kompleks xarakterliligi.

### **2-AMALIY MASHG‘ULOT: Sharq tarixnavisligida tarix fani ilmiy-nazariy masalalarining zamonaviy tadqiqotlari.(2soat)**

Ijtimoiy va tabiiy fanlar uslublarining o‘zaro bog‘liqligi. Tarix fanining kompleks xarakterliligi. Abu Rayhon Beruniyning tarixiy ilmiy qarashlari zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlari. Tarixiy manba, axborot va uning xususiyatlari. Axborotning nazariy manba sifatidagi o‘rni. Manba axborot tashuvchi. Yaqqol va yashirin axborot.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” “O‘zbekiston”, 2021.- 464 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

7. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvar “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentabr “Oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3290-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4910-son Qarori.



12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risda” 296-son Qarori.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

13. Голованов А.А., Саидов И.М., Дехканство Узбекистана на историческом повороте второй половины XIX-первой трети XX вв. Т.: Самарканд 2007.

14. Исоқов З. Фарғона водийси анъанавий деҳқончилик маданияти. Т.: “Yangi nashr” 2011.

15. Насриддинов Қ. Суғорма деҳқончилик атамаларининг қисқача изоҳли луғати. Ўқув қўлланма. Т.: “Янги аср авлоди” 2008.

16. Мусаев Н.У. Ўрта Осиёда деҳқончилик маданияти ва аграр муносабатлари тарихи. – Т.: Фан, 2005Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура.1-жилд. Т.: Ўзбекистон,1996.

17. Sagdullayev A.S., Mavlonov O‘. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. -T., 2006.

18. Ртвеладзе Э.В. История государственности Узбекистана. -Т.: Узбекистан. 2009.

19. Ешов Б.Ж. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи. (ўқув қўлланма). - Т.:Маърифат, 2009.

20. Yo‘ldoshev S.V., Tojiboyev M. Etnotoponimika. O‘quv qo‘llanma/-Farg‘ona: 2021.

21. Ahmadaliyev Y. Farg‘ona viloyati toponimlari. Farg‘ona., “Farg‘ona”.2009

22. Гумилев Л. Этногенез и биосфера земли. -Л.: Гидрометиздат. 1990.

23. Бобров И.В. и др. История мировых цивилизаций часть I. Учебное пособие. Тюмень 2004

24. Бобров И.В. и др. История мировых цивилизаций часть II. Учебное пособие. Тюмень 2004

25. SH.Ergashev. Qadimgi sivilizatsiyalar. - T.: O'zbekiston, Tixonravov Y.V. Geopolitika. M., 2000.
26. Гаджиев К.С. Введение в геополитику. М., 2001.
27. Нартов Н.А. Геополитика. М., 2002.
28. Xo'janov B.A. Geosiyosat asoslari. T., 2002.
29. Tolipov F. Bolshaya strategiya Uzbekistana v kontekste geopoliticheskoy i ideologicheskoy transformatsii Sentralnoy Azii. T., 2005.
30. Safojev S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. T., 2005.
31. Bhuvan Garg. Teaching of history. India. New Delhi.: Rajat publications. 2010.
32. James B. M. Schick., Teaching History With a Computer: A Complete Guide for College Professors. USA. 2009.
33. Гринин Л. Е. О стадиях эволюции государства. Проблемы теории // История и современность. 2006. № 1.
34. Государство на Древнем Востоке. М., 2004.
35. Каспэ С.И. Империи генезис, структура, функции // Каспэ С.И. Политические исследования. М., 1997.
36. Subtelny M.E. Timurids in Transition Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. - Leiden-Boston, 2007.
37. Mazar Documents from Xinjiang and Ferghana (Facsimile) 3. Edited by A.Muminov, N.Abdulahadov, K.Yayoi. - Tokyo: Tokyo University of Foreign Studiyes, (Studia Culturae Islamicae, 88), 2007.- 234 p.

#### **IV. Internet saytlar**

37. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
38. <http://yedu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
39. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
40. <http://lib.bimm.uz> – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik

markazi

41. <http://ziyonet.uz>– Ta’lim portali Ziyonet

42. <https://tarixinstituti.uz/uzb/Bo‘limlar>

43. <http://www.istedod.uz> - “Iste’dod” jamg‘armasi sayti

**44. <http://www.yedunet.uz> - maktablar, o‘quvchi va o‘qituvchilar sayti.**

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

### Mashg‘ulotda jarayonida qo‘llaniladigan «Aqliy hujum» usuli

|                              |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
|------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Aqliy xujum</b>           | - (breynstorming - miya buroni), amaliy va ilmiy muammolarni yechishda jamoa bilan ma’lumot yig‘ish                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |
| <b>Usulni asosiy g‘oyasi</b> | - g‘oyalar to‘plash, ularni baholash va tahlil qilish, ajratish. “Aqliy hujum”ni olib boruvchining xatti-xarakati uchun bu g‘oya asosiy ko‘rsatgich bo‘lib, ishtirokchilarni imkoniyat qadar ko‘p g‘oyalar taklif qilishga undaydi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |
| <b>Qoidalari</b>             | Imkoni boricha ko‘proq g‘oyalarni taklif etish (jamlash), ularni talqin qilish, muammolarni yechish va ularni doskaga yozib qo‘yish.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
| <b>Ta’lim beruvchi</b>       | Qatnashchilarni 3-4 guruxga bo‘ladi va xar biriga muammolar taklif etadi (Ilova 1)<br>- Ishtirokchilarni qo‘llab-qo‘vvatlaydi (imo-ishora, jilmayish, xa-yo‘q so‘zlari bilan);<br>- yumshoq, ammo astoydil tinglovchilarni boshkalarni tanqid qilishdan kaytarib turadi;<br>- xar bir fikrni o‘zgartirmasdan doskaga yozdirib qo‘yadi;<br>- tinglovchilarni so‘rovga kirishib ketishiga yordam berish va psixologik tuskinlikni yukotish uchun, oldingi yoki shu darsdan kutilmagan, original savollar berib mashq o‘tkazadi (blits so‘rov) (Ilova 2). |
| <b>Fidbeyk</b>               | - har bir g‘oyani muhokama qilish;<br>- eng to‘g‘ri g‘oyalarni qo‘llab-kuvvatlash                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |

## Aqliy hujumning maqsadi va qoidalari

### Aqliy hujumni o'tkazishdan maqsad:

- muammoni hal qilish uchun g'oyalarni topish;
- g'oyalarni ularning ahamiyatliligiga qarab tartiblash;
- faol fikrlash malakasini shakllantirish;
- kutilmagan g'oyalarni paydo bo'lish jarayonini namoyish qilish;
- topilgan g'oyalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

### Aqliy hujum qoidalari:

- g'oyalarni ilgari surilishi bosqichida tanqid taqiqlanadi;
- original hatto fantastik g'oyalar rag'batlantiriladi;
- barcha g'oyalar yozib boriladi yoki qayd qilinadi;
- agar ma'qul topsa muallifning o'zi ham yozib boradi;
- "aqliy hujum" metodida qatnashchilar bir-biri bilan yuridik va ma'muriy jihatdan bog'liq bo'lmasligi zarur;
- tahlilchilar guruhi nisbatan samarali g'oyalarni tahlil qiladi, sintez qiladi, baholaydi va tanlaydi;
- ushbu tadbirni o'tkazishda Keynsning "iqtisodchilar adashsalar ham ularni g'oyasi kelajak uchun xizmat qiladi" degan qoidasiga amal qilish.

### Natija:

- talabalar tomonidan muayyan nazariy bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishiladi;
- vaqt ajratiladi va qilinadi;
- har bir talaba faollikka intiladi;
- ularda erkin fikrlash layoqati shakllanadi.

## 1. O'quv topshiriqlarini bajarish bo'yicha vazifalar

Guruhni 2ta kichik guruhlariga bo'linadi va har bir guruh uchun savollar tarqatma material sifatida tarqatiladi.

Izox: Qaysidir guruh to'la aniq javobni birinchi bo'lib topsa guruhni xar bir a'zosiga 1.0 balldan baho qo'yiladi. Agarda guruhdan 1 yoki 2ta talaba to'g'ri javob topsa u xolda ularga 1.0. balldan rag'batlantiriladi.

### Mavzu bo'yicha 1-guruh savollari:

1. Mustaqillik tarix fani oldiga qanday vazifalar qo'ydi?
2. Mustaqillik yillarida tarix fani manbashunoslik sohasida qanday yutuqlarga erishdi?
3. Shaharlar tarixini o'rganish bo'yicha bajarilgan ishlar bo'yicha fikr mulohazalaringizni bildiring
4. O'zbekiston tarixshunosligi bo'yicha yana qanday muammolar bor deb o'ylaysiz?
5. Jahon tarixshunosligi va O'zbekiston tarixshunosligidagi tafovutlar nimalarda yaqqol ko'rinmoqda?

### Mavzu bo'yicha 2-guruh savollari:

1. Zamonaviy tarix tushunchasi
2. Zamonaviy tarix muammolari
3. Zamonaviy tarixning rivojlanish yo'nalishlari Globallashuv va tarix fani
4. Tarix voqealikning vujudga kelishi qonuniyatlari
5. Tarixiy voqealarni tahlil etishda tarixiy sharoit tushunchasi
6. Tarixiy voqealarni tahlil etishda tarixiy zaruriyat tushunchasi
7. Tarixiy voqealarni tahlil etishda tarixiy oqibat tushunchasi

### III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

#### 1-MAVZU: Tarix faninning zamonaviy konsepsiyalari

Tarix faninning zamonaviy konsepsiyalari. Tarixiy xotira, tarixiy tafakkur mazmuni va zarurati. Tarixiy manbalar va tarixiy dalil. Dalil va uning ilmiy-tahliliy masalalariga oid ayrim ilmiy-nazariy qarashlar.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixini xolisona o'rganish, o'zbek xalqining qadimiy va boy tarixiga haqqoniy baho berish ustuvor vazifaga aylandi. O'zbek xalqining hayoti va taqdiriga keskin burilish yasagan mustaqillik soyasida ilm-fan, xususan milliy o'zlik va ma'naviy yuksalish asosi bo'lgan tarix fani ham o'ziga xos rivojlandi. O'zbekiston tarixini xolisona yoritishda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asarida aytilganidek, "... jahondagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganish amalda joriy etishni oldimizda turgan keng ko'lamli vazifalarni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri, deb hisoblaymiz". Ma'naviyatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan tarix fani so'ngi yillarda ilk bor o'zining qonuniy vazifasini bajarishga – xalqning o'zligini anglatishga xizmat qilishga kirishdi. "Tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yuqotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi".

Tarixiy voqea, hodisalarni o'rganish, tahlil etish va yoritishda xolislik, haqqoniylik, adolatli yondashuv muhim hisoblanadi[3,121]. Tarix fanini samarali tashkil etish haqida fikr yuritishdan oldin "samarali ta'lim" tushunchasini mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar fikrlarini tahlil etgan holda o'rganib chiqsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Samarali o'qitish - bu o'qituvchilarning turli xil o'qitish uslublarini

birlashtirib yoki ularni alohida qo'llash orqali talabalarda mustaqil o'rganish qobiliyati, dars atmosferasini idrok etish, tushunish va va kerakli bilimlarni egallash darajasi yuqori bo'lgan ta'lim jarayoni hisoblanadi.

Shuningdek, samarali o'qitish bu o'z o'lchovlari bilan baholanishi kerak bo'lgan keng tushunchadir. Shuning uchun samarali o'qitish, ta'lim sifatini oshirish uchun tashkil etilgan turli xil murakkab jarayonlar majmuasi hisoblanadi

Samarali o'qitishning ikkita asosiy xususiyati mavjud. Bular: • Talabalarni turli xil faktlar, ko'nikmalar, qadriyatlar va tushunchalarni o'rganishlarini osonlashtirish; • Sinfda yagona kursni emas, balki turli xil o'qitish strategiyalari, usullar va texnologiyalarni yakka yoki kombinatsiyalangan holda ishlatish qobiliyatini o'qituvchilarda shakllantirish; Yana bir qarashga ko'ra, samarali ta'limni talabalarning muvaffaqiyat darajasini oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy o'qituvchilik malakasi sifatida tavsiflash mumkin. Bu fikrlar qurshovida aytish mumkinki, samarali ta'lim beruvchi o'qituvchi o'z kasbi va sohasini bilgan va sevgan, bilimli, g'ayratli, fidoyi, tartibli va kirishuvchan, tez va to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatiga sohib, adolatli va shu bilan birga talabalarga bilimni targ'ib qilaoluvchi va ularning tinchligi va kelajagiga qiziqadigan shaxs sifatida belgilanadi.

"Ta'lim" keng ma'noda oldingi avlodlar tomonidan tashkil etilgan katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tajribalarni doimiy ravishda keyingi avlodlarga yetkazishga yo'naltirilgan umumiy jarayon, tor ma'noda esa, ijtimoiy institut, jamiyatning ijtimoiy quyi tuzilmalaridan biridir. "Sifat" esa falsafiy termin sifatida ob'ekt yoki predmetning barcha muhim xususiyatlari yig'indisidir. "Ta'lim" va "sifat" tushunchalarining mohiyatini uyg'unlashtiradigan bo'lsak, ta'lim sifati, bu uning xususiyatlari yaxlitligi, ta'lim oluvchi o'qishi va shaxsiy rivojlanishi uchun xizmat qiladigan eng qulay usullar birikuvidan iborat jarayondir.

Ta'lim sifati - bu butun ta'lim tizimi tarkibiy qismlarining sifat vazifalari, murakkab rivojlanish kuchi(dinamika)ga ega bo'lgan jarayon bo'lib, bu ta'lim muassasalari faoliyatidagi o'zgarishlar, ya'ni ularning ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va siyosiy muhitining o'zgarishi bilan izohlanadi. Ayni vaqtda zamonaviy ta'lim sifati innovatsion rivojlanish natijalaridan biri emas, balki uni amalga oshirish uchun



zarur bo'lgan shartlardan biridir.

Ushbu tadqiqot sohasi bo'lgan tarix tushunchasi ilmiy soha va fan sifatida vaqt o'tishi bilan odamlar tomonidan qilingan harakatlar va faoliyatlarni o'rganish jarayoni hisoblanadi. Biroq, tarixiy jarayonda sodir bo'lgan barcha narsalarni o'rganish va ochib berish imkonsizdir. Chunki, tarixning pozitiv nuqtai nazarida aytilganidek, tarixiy ma'lumot sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lgan har qanday da'vo dalillarga, ayniqsa yozma dalillarga asoslanishi kerak. Shuning uchun tarixni o'tmish voqealari va dalillari haqida yozilgan axborot deb ta'riflash mumkin. J. Slater bu fikrni quyidagicha ifodalaydi: “.....mohiyatan tarix o'tmishni o'rganish va bizning bilimlarimiz va fikrlarimizni bir vaqtning o'zida tasdiqlash usulidir”.

Tarix tushunchasining g'arbdagi muqobili bo'lgan "history" qadimgi yunon tiliga tegishli bo'lib, "izlanish" yoki haqiqatni tadqiq qilish ma'nosini anglatadi. Bir fan sifatida tarix insoniyat tarixini o'zining noyob metodologiyasi orqali o'rganadi. Tarixiy metodologiya, tadqiqot sohasini, muammoni yoki mavzuni aniqlash, ushbu mavzu yoki muammoga tegishli gipotezalarni ishlab chiqish, olingan dalillar va manbalardan ma'lumot to'plash, ushbu ma'lumotlarni tahlil va tanqid qilish, mavzu bo'yicha boshqa izlanishlarni ko'rib chiqish va mavzuni tushunish, shuningdek mantiqiy asosda izohlangan tadqiqotni ochib berishdan iboratdir. Shunga asoslanib, tarixchining roli sifatida o'zining mustaqil ilmiy rivojlanishi jarayonida o'tmishni o'rganish, mavzuni aniq, real va to'liq tushunchalarini yoki tasvirlarini yaratish va barcha bu bosqichlar haqida fikrlash kabilar belgilanadi. An'anaviy tarix darslarini tashkil etishda talabalarga ma'lumot uzatish jarayoni odatda darslik yoki boshqa ikkilamchi tayyor manbalarini o'qish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon talim oluvchiga tayyor ma'lumotlarni eslab qolish va axborot sifatida qabul qilish ko'nikmasini hosil qiladi xolos. Noan'anaviy interfaol, samarali tarix darslarida esa o'tmish haqida ishonchli ta'riflar va tushuntirishlarga erishish uchun yuqorida aytib o'tilgan ko'nikmalar va tarix o'qitish metodikasidan foydalanishga urg'u beriladi. Chunki tarix darslarida va tarixni tadqiq qilishda qo'llaniladigan pedagogik va tarixiy tadqiqot usullari o'quvchilarga o'tmishni tushunishda turli xil foydali qulayliklar berishi mumkin. Manbalarni o'rganish va yozma dalillarni aniqlash, manbani yoki

berilgan dalillarni tayyorlagan shaxs(lar)ning shaxsiy fikrlarini aniqlash va yozma yoki boshqa manbalarda keltirilgan fikrlarning asl ma'nosini o'rganish jarayoni tarix o'qitishning yana bir jihatlaridir. Bu tarixiy haqiqatni qanday o'rganish mumkinligini o'rgatish demakdir. Samarali tarix o'qitish o'quvchilarga tayyor tarixiy xulosa qilingan ma'lumotlar bilan birga manba va dalillarni taqdim etishni talab etadi. O'quvchi ma'lum tarixiy manbalarni (xoh yozma, xoh og'zaki bo'lsin) tahlil etgan holda tarixiy bilim va tasavvur hosil qilishi pedagogik nuqtai nazarda g'oyat samaralidir. Zotan, tarix darslarida ta'lim oluvchining xotirasini rag'batlantiruvchi usullardan ko'ra, uning mustaqil fikrlashini ta'minlaydigan usullardan foydalanish foydali hisoblanadi. Tarixiy bilimlarni tushunish va o'tmishni anglash uchun dalillarni o'rganish va ko'zdan kechirish talab etiladi. Ammo tarixni tashkil etuvchi elementlar nafaqat ular haqida balki, o'tmish voqealari, bugungi kunda ma'lum bo'lgan tajrabalar majmuasi hamdir. Ba'zi tadqiqotchilar tarixiy tafakkur jarayonlaridan foydalangan holda tarixni o'qitish amaliyotlari ko'plab tarixiy muammolar va mavzularni tushunishda muhim hissa qo'shishini ta'kidlaydilar. Bugunig zamonaviy ta'lim holati ta'lim tushunchasini qayta ko'rib chiqish va aniqlashtirishni, shaxsga yo'naltirilgan pedagogikaning toifalari va tamoyillarini tahlil qilish jarayoniga kirishni talab qiladi. Pedagogik ongning yangi modeli asta-sekin o'qituvchining ta'lim oluvchiga bevosita ta'sir etish amaliyotidan voz kechadi va ta'lim oluvchining o'z rivojlanish imkoniyatlarini ta'minlash uchun barcha pedagogik makonning tuzilishini yanada samarali tashkil etishga imkon beradi. Shunday qilib, har bir o'qituvchi o'z darslarini qiziqarli va mazmunli bo'lishga intiladi, bu esa ta'lim oluvchininglarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Xususan, tarix darslarida faktlarni assimilyatsiya qilish emas, balki turli davrlarning qadriyatlarini rivojlantirish, o'tmish odamining o'rniga o'zini qo'yish, uning fikrlarini, harakatlarini tushunish qobiliyati orqali shaxsni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bularning barchasi tarixiy empatiya yordamida amalga oshirilishi mumkin. Empatiya yunoncha - "ehtiros", "azob", "tuyg'u", boshqa odamning hozirgi hissiy holati bilan ongli hamdardlik ma'nosini bildiradi. Tarixiy empatiya esa tarixiy hodisalar va tarixiy shaxslar hayotini o'zida his etish demakdir. Tarixiy empatiyani shakllantirish usullaridan biri tarixiy hodisalarni

hikoyasi hisoblanadi. Rus tadqiqotchilari asarlarida hikoya usulidan darslarida samarali foydalanish haqida so'z boradi. Ular orasida P.V.Goran, A.A.Vagin, P.S.Leibengrublar alohida qayd etiladi. Hikoya orqali bolalarda empatiya shakllanishiga hissa qo'shish uchun A.A.Vagin tomonidan aytilganidrek turli xil maxsus vositalardan foydalanish talab etiladi. Tarixiy hodisalarni jonlantirish orqali tarixiy mavzu yanada ishonchli bo'lishiga erishiladi va o'rganilayotgan tarixiy hodisalarning o'ziga xosligini yaxshiroq ochib berishga imkon beradi.

Tarix darslarida badiiy adabiyot namunalaridan foydalanish ham tarixiy haqiqatni aniqlashtirishga, o'tmishning yorqin tasvirlarini yaratishga yordam beradi. Bundan tashqari, tarixiy voqealarni hikoya qilishda turli xil namoyishlarni qo'llash samrali hisoblanadi. Misol uchun, moddiy madaniyat obektlarining tasviriy ko'rinishlari, o'qitishning texnik(audio-vizual) vositalari shular jumlasidandir. Bularning barchasi o'quvchilarga tarixiy davrning muhitini tasavvur qilish, o'zini o'tmishda tarixiy hodisalar ichida his qilish tuyg'usini boshdan kechirish imkonini beradi.

Tarixiy empatiya shakllanishining yana bir usuli, bu shaxsiyatdir. Ta'lim oluvchining qalbida taqdir, harakatlar, hayot sharoitlari, tarixiy shaxsning faoliyati haqida tasavvur tarixiy shaxsning holati va faoliyatini ijtimoiy hayotdagi odatiy hodisa sifatida tushunishga imkon beradi.

Tarixiy empatiya shakllantirish quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi: ■Xayoliy sayohat. Tarix darsi jarayonida o'tmish kishisini ko'rishimiz mumkin bo'lgan narsani tasvirlash talab etiladi. Misol uchun: "Men XVIII asrdagi Qo'qon xonligiga boraman va...", "....keling, feodal qal'asiga kiraylik..." singari kirish so'zlari yordamida ta'lim oluvchilarni o'rganilayotgan tarixiy davrga boshlab borish va tarixiy sayohat uyushtirish tarixiy empatiya shakllantirish usullaridan biri hisoblanadi. Bunday vazifalarning ijobiy tomoni shundaki, ta'lim oluvchilar tarixiy tafsilotlarga e'tibor berishadi. ■Xayoliy intervyu. Bir talaba tarixiy shaxsga aylanadi, qolgan ta'lim oluvchilar unga savollar beradi. Beriladigan savollar tarixiy qahramon hayoti va faoliyatiga oid bo'lishi talab etiladi. Ushbu turdagi topshiriq oldingi vazifani bajarishga qodir bo'lgan dars ishtirokchilarini yaxshi tayyorgarligini talab qiladi.

▪Tugallanmagan jumla usuli – Tarixiy shaxsdan, masalan, Sohibqiron Amir Temurga tegishli bo'lgan iborani davom ettirish so'raladi. ("Biz kim mulki Turon..."). Shunday qilib har qanday tarixiy voqealarning tugashini taxmin qilish tajribasini amalga oshirish taklif qilinadi. ▪Tarixiy tanlov - "...siz qanday qilardingiz ", " ....kimni yoqlardingiz ?", "Siz qaysi toifa tarafidasiz?", va b.». Mazkur savollar asosida ta'lim oluvchi tarixiy hodisalarni o'zida his qilgan holda tarixiy shaxslar o'rnida qaror qabul qilish va tarafni belgilashi mumkin bo'ladi. Chet ellik metodistlar dars jarayonida quyidagi vazifalardan foydalanishni taklif qilishadi: "Agar siz 15 yoshli Shoh Richard III bo'lsangiz, dehqonlarning qo'zg'olonlarida isyonchilar bilan kurashayotganda nimani his qilasiz? Ularning talablariga rozi bo'larmidingiz?" Ushbu vazifani bajarayotganda talabalar nafaqat tarixiy materiallarni bilishlarini, balki mavjud bilimlarni tahlil qilish orqali ham muammo bo'yicha o'z nuqtai nazarini taqdim etishlari kerak bo'ladi. ▪Qayta tiklangan rasm - tarixiy rasmlarning monologlari yoki suhbatlari bilan tanishish. Ushbu turdagi topshiriqni bajarayotganda talabalar tarixiy bilimlarni namoyish qilishlari kerakligini aniq tasavvur qilishlari talab etiladi, shuning uchun bu vazifa nafaqat darslik asosida, balki qo'shimcha adabiyotlarni jalb qilish bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Birinchi shaxsdan olingan kompozitsiya - turli janrlardan foydalangan holda bitiklar, xotiralar, kundalik yozuvlariga asosan guvoh yoki ishtirokchi nomidan o'tmish voqealari haqida hikoya qilinadi. Tarix o'qitish va tarixiy tadqiqot jarayonida ta'lim ishtirokchilari va tadqiqotchilar oldida tarixiy atamalar va tushunchalarni tushunish, izohlash va ulardan foydalanish kabi til bilan bog'liq muhim vazifa turadi. Ingliz tadqiqotchisi Graham Swift in Husbands fikriga ko'ra o'tmish haqida turli yo'llar bilan tushunchalarga ega bo'lish, tarixiy shaxslarining qarashlari, e'tiqod va faoliyatlarini izohlash va tarixchilar tomonidan tarixiy jarayonlarni ifodalashlari uchun qo'llaniladigan, tarixiy ifoda va tushunchalarni o'zida jamlagan maxsus til "tarixiy til" deb nomanadi.

Tarix o'qituvchisining o'ziga xos vazifasi tarixiy tushunchalarni o'rgatish bilan birga uni kelajakga yetkzishni ta'minlashdir. Tarixni o'qitish samaradorligini ta'minlash uchun, tarix o'qituvchisidan ma'lum bilim darajasi va ba'zi o'qituvchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi, tarixiy voqealarni, faktlarni, odamlarni, jarayonlarni va

o'ziga xoslikni tushunish va tushuntirish uchun transformatsiya, sharhlash, baholash, tahlil va sintez qobiliyatlari va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi. Tarix o'qitish jarayonida boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro bog'liqligidan kelib chiqib materiallar tayyorlash, masalan geografiya, fuqarolik bilimlari, diniy madaniyat va axloqshunoslik fanlaridagi ma'lumotlardan foydalanish talabalarga nafaqat mavzularni yaxshiroq o'rganishga yordam beradi, balki umuman ijtimoiy voqeliklarni idrok etish va real hayotni tushunish imkoniyatini beradi. Dars jarayonida tarixiy materiallar va manbalardan (tarixiy hujjatlar, tarixiy ashyolar, rasmlar, xaritalar) foydalanish juda muhim va foydalidir. Bundan tashqari, tarix darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internetdan foydalanish o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga hissa qo'shibgina qolmay, ularning tarixiy tafakkur va o'rganish darajalarini oshiradi.

## VI. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

### 1-AMALIY MASHG'ULOT: Tarix ta'limini tashkil etishning konseptual asoslari (2 soat)

Tarix fanini takomillashtirish istiqbollari. Tarix ta'limini tashkil etishning konseptual asoslari. Tarixiy bilishning o'ziga xosligi va tarixiy bilish tamoyillari. Ijtimoiy va tabiiy fanlar uslublarining o'zaro bog'liqligi. Tarix fanining kompleks xarakterliligi.

Zamonaviy fanning rivojlanish dinamikasi unda fanlarning integratsiyasi, fanlararo tadqiqotlarning o'sib borishi bilan xarakterlanadi. Zero, muammoni bir necha fanlarning metodlari asosida o'rganish tadqiqotning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Zamonaviy fan metodologiyasiga murojaat qiladigan bo'lsak, murakkab tizimlarni o'rganish uchun bitta fan metodlari yetarli bo'lmay qoldi. Tarixga va tarixchi kasbiga yangicha yondashuvlar tarafdorlari "Annallar" maktabi vakillari M.Blok va L.Fevr jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini o'rganish o'rtasidagi uzilishni yo'qotib, ularni uyg'un ravishda o'rganish g'oyasini ilgari surganlar. Tarixiy tadqiqotlar markaziga inson, uning tasavvurlari, qo'rquvlari, umidlari, bir qolipda idrok qilishlari va o'zlarini tutishlari asosiy o'ringa chiqqanligi g'oyat achinarlidir. Yangicha yondashuvning muhim jihatlaridan biri bayon qilish uslubidan voz kechgan holda muammolar qo'yish va farazlar ishlab chiqarishdan iborat edi. Tarixchilar o'tmishda yashagan insonlarni o'rganish uchun ular bilan dialogga kirishib, bu orqali ularning qadriyatlari va tafakkurining boshqa tomonlarini tadqiq qilish imkoniga ega bo'ladi.

"Yangi tarix fani" vakillari nafaqat tarixning maxsus usullaridan, balki ijtimoiy-gumanitar fanlarning uslublaridan ham foydalana boshladilar. L.Fevr: "Bir-birigayaqin va uzoq bo'lgan fanlar o'rtasida aloqa o'rnatish, bu fanlarning kuchini bitta tadqiqot obyektiga qaratish ularning o'z-o'zini cheklashini va yakkalanishini tugatadi. Gap faqat bir-biridan tushunchalar o'zlashtirish haqida emas, balki tadqiqot

uslublari va ulaming mohiyatini o'zlashtirishdan iboratdir" - Fanlararo tadqiqotlarning metodologik asosini ijtimoiy gumanitar fanlar obyektining umumiyliigi (predmetidan farqli ravishda), ya'ni inson hayoti ekanligi tashkil etadi. Umuman tarixiy bilish boshqa ijtimoiy fanlar bilan chambarchas aloqada rivojlana bordi. XIX - XX asrlarda sotsiologiya, psixologiya, shu jumladan tarixiy va ijtimoiy psixologiya, antropologiya kabi mustaqil fanlar vujudga keldi. Ulaming tadqiqot natijalari tarixchilarga insonlarning turli jamiyatlar a'zolari sifatidagi xulq-atvori va o'zaro ta'siri sabablari hamda mexanizmini chuqurroq o'rganishga yordam berdi. "Annallar" maktabi asoschilari M.Blok va L.Fevming "eski" tarixchilar, ya'ni asosan siyosiy va diplomatik tarix tarafdorlari bilan kurashi XX asrning 50-yillarida G'arb tarixshunosligida "yangi tarix"ning, ya'ni ijtimoiy va iqtisodiy tarixning g'olib chiqishiga olib keldi. "Annallar" maktabi ikkinchi avlodi rahbari F.Brodel 1956-yilda L.Fevr o'limidan so'ng jumalga muharrirlik qildi. Uning fundamental tadqiqoti "Moddiy sivilizatsiya, iqtisod va kapitalizm" deb atalib, XX asrda insoniyat tarixini yaxlitlikda yarata olgan asar sifatida tanilgan. Unda muallif "faqat tarix fani inson haqidagi barcha fanlarni birlashtira oladi, ulaming tadqiqotlarini bog'lashga yordam beradi, fanlararo ijtimoiy fan bo'la oladi", deb yozgan edi. Tarixiy tadqiqotlarda mikro va makroyondashuvlarni birgalikda ishlatgan olim F.Brodel edi, u Yevropa tamadduni shakllanishining keng tarixiy holatini aks ettira olgan. Bundan tashqari, tadqiqotning geografik doirasi ham juda kengligi bilan ajralib turadi. Unda Afrika mamlakati Abissiniya, Janubiy Amerika daryosi Amazonka va Sibir shahri Tomsk ham bor. Ushbu tadqiqotdagi mikroyondashuv esa kundalik hayot strukturasi: oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va b., ya'ni "makon va zamonda zo'rg'a ko'zga tashlanadigan mayda faktlar"ni o'rganishda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi o'ta muhim masala bo'lib, u fanning tub ilmiy-nazariy asoslarini tashkil etadi. Ma'lumki O'zbekiston tarixi sovet davrida eng qadimgi davrdan boshlab 5 ta taraqqiyot bosqichiga: ibtidoiy, quldorlik, feodalizm, kapitalistik, sotsialistik (kommunistik) jamiyatlarga bo'lingandi. O'zbekiston tarixiga oid dastur, darslik, va o'quv qo'llanmalari sovet tuzumi davrining soxta, to'qima materiallaridan butunlay holi qilindi. Ularda O'zbekiston

tarixi shartli ravishda eng muhim davrlarga, o'zbek davlatchiligi tarixiy davrlariga, xususan, dastlabki davlatlar (qadimgi davrlardan IX asrgacha), IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi, Amir Temur va Temuriylar davrida o'zbek davlatchiligi, O'rta Osiyo hududlarining xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari, Rossiya imperiyasining Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati, Sovetlar davri siyosati va Mustaqil O'zbekiston davlati tarixiy davrlariga bo'lindi. O'zbekiston tarixi fani uchun tarixiy manbalarning o'rni va ahamiyati nihoyatda katta. Zotan, manbalar tarixni tilga kiritadi. Manbalar o'z holatiga ko'ra, yozma va moddiy ko'rinishlarga ega bo'ladi, tariximizning eng qadimgi, ya'ni yozuvsiz zamonlarga oid davrini o'rganishda arxeologik, antropologik va etnografik manbalar yordamga keladi.

Moddiy ashyoviy manbalarga qadimda inson qo'li bilan yaratilgan hamma narsalar kiradi. Yozma manbalarga esa qoyatoshlarga, sopol, yog'och, teriga va xokazolarga bitilgan qadimgi yozuvlar va kitoblar kiradi. O'zbekiston tarixi bo'yicha eng qadimgi yozma manba zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"dir.

Tarixiy manbalar davr nuqtai nazaridan qadimiy va joriy (kundalik) ahamiyatga ega bo'ladi. Shuningdek, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra birlamchi va ikkilamchi maqomga egadir. Birlamchi manbaga tarixiy hujjatlarning asl nusxasi kirsam, ikkilamchi manbaga esa, mana shu birlamchi manbalarning e'lon qilingan nusxalari, kitob holatiga keltirilganlari kiradi.

Manbalar o'z holatiga ko'ra yozma va moddiy ko'rinishlarga ega bo'ladi. Yozma manbalar eng qadimgi yozuvlar, bitiklar va kitoblardan iborat. Tariximizning eng qadimgi yozuvsiz zamonlarga oid davrini o'rganishda arxeologik, antropologik va etnografik manbalar yordamga keladi. Bularga qadimgi manzilgohlar, shahar harobalari, qo'rg'on qoldiqlari, turmush va xo'jalikda ishlatiladigan buyumlar, mehnat va jang qurollari, turli-tuman ashyolar kiradi. O'zbekiston tarixi fani boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan aniq fan. Shuning uchun ham u matematika usulidan keng foydalaniladi. Tarixiy voqea va hodisalar qat'iy aniqlikda, davriy ketma-ketlik-xronologik asosda o'rganiladi. Shu bilan birga tarixiy



voqelikning sabab va oqibatlari aniqlanib, shakl-shamoyillari va holati belgilanadi. O'zbekiston tarixi o'tmishda ijtimoiy-iqtisodiy hayotining rivojlanishi va tanazzulning sabab va oqibatlarini o'rganib, ulardan kelajak uchun zarur saboq va xulosalar chiqaradi. O'zbekiston tarixi insoniyat jamiyatining faqat bir qirrasini emas, balki hamma tomonlarini uzviy bog'liqlikda, bir butunlikda o'rganadi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Shuningdek, ta'lim sohasida ham bir qator islohotlar o'tkazilib, barkamol avlodni shakllantirishga yo'naltirilgan islohotlar rivojlantirilib borilmoqda. Bugun jahonda yuz berayotgan voqea va hodisalar, mafkuraviy qarama-qarshiliklarning mazmun-mohiyatini tahlil etish, turli xil yot g'oyalardan yoshlarni himoya qilish uchun tarixiy tafakkurni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Oliy o'quv yurtlarida O'zbekistonning eng yangi davri tarixini chuqur o'rganish yosh mutaxassislarning bugungi davr siyosatini, jahon hamjamiyatidagi o'rnini, davr qahramonlarini, ayniqsa o'zining ham shu jarayon ishtirokchisi ekanligini to'g'ri va to'liq anglashi jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy haqiqat to'la ro'yobga chiqishida, haqqoniy tarix yozilishida tarix fani predmetining to'g'ri belgilanishi o'ta muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston tarixi fani boshqa ijtimoiy fanlardan farqli o'laroq mustaqil fan. Bu uning o'rganish predmeti hamda vazifasida to'la namoyon bo'ladi. U fan sifatida o'zining butun diqqat e'tiborini faqat o'tmishga qaratadi, undan saboq beradi, xulosi chiqaradi, ajdodlarimiz yaratgan madaniy, ma'naviy-mafkuraviy qadriyatlarni o'rganadi. O'zbekiston tarixi fani o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Tarix bilan boshqa ijtimoiy gumanitar fanlarning o'rganish ob'ekti bitta, ya'ni jamiyat. Shuning uchun ham boshqa fanlar tarix fani taraqqiyotiga, tarixiy haqiqatning ro'yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. Shu bilan birga tarix boshqa fanlarning ham tarixidir, chunki ularning hammasi tarixiy ong, tafakkur, umuman tarixning mahsulidir. Boshqa fanlarning hammasi ham, tabiat va jamiyat ham avvalo tarixda aks etadi. Ular ham tarix fanini o'rganish ob'ekti va predmeti hisoblanadi. Xulosa shuki, Vatan tarixi millatni murabbiysi sifatida uni ravnaq topishida muhim

o‘rin tutadi. Mustaqillik sharofati bilan bu fanni o‘rganishga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgarib, uni barcha oliy o‘quv yurtlarida shu paytga qadar o‘qitilib kelindi. Har qanday fan kabi O‘zbekiston tarixi fani ham o‘zining g‘oyaviy nazariy asoslari, ilmiy ta‘limotlari, usuli va uslubiy talab va tamoyillarga ega. Bular bu fanning asosini tashkil etib, uning maqsad va vazifasini to‘laroq ro‘yobga chiqarishga yordam beradi va tarixiy haqiqatni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. O‘zbekiston tarixi fanining ilmiy-nazariy uslublari va uning tamoyillari quyidagilardan iborat:

Tarixiy hodisa va voqealarni, hujjat va faktlarni ilmiy, xolisona o‘rganish va tahlil qilish;

tarixni milliylik va umuminsoniylik asosida o‘rganish va tahlil qilish;

tarixni haqqoniy, tarixiy-falsafiy mantiqiylik asosida o‘rganish va yozish;

tarixga milliy va umuminsoniy xotira va qadriyat sifatida hurmat va ehtirom bilan e‘tiborli bo‘lish;

xalq, buyuk davlat arboblari va rahbarlari, iste‘dodli va qobiliyatli, fidokor va qahramon kishilarning tarixda tutgan o‘rniga alohida e‘tibor berish;

tarixiy voqea va hodisa, hujjat va faktlarning to‘g‘ri va noto‘g‘riligini aniqlashda tarixiy-tanqidiylik usuliga amal qilish;

tarixni o‘rganishda tarixiy izchillikka amal qilish;

tarixni ilmiy-ijodiy qiyoslash va tanqidiy asosda o‘rganish;

etnografiya, arxeologiya, antropologiya, geneologiya va boshqa fanlarning yutuqlari hamda usullaridan foydalanish;

tarixni o‘rganishga vorisiylik va uzviylikka, eng muhimi mantiqiylikka amal qilish.

Mustaqillik tufayli O‘zbekistonda milliy, demakki, ma‘naviy-ruhiy erkinliklarga keng yo‘l ochildi, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, g‘oyaviy, madaniy hayotining muhim tarmog‘i hisoblangan ma‘naviyatni shakllantirishga bevosita ta‘sir qiladigan hayotiy muhim omillardan bo‘lgan yuksak ma‘naviyatli, dunyoqarashi keng qamrovli, intellektual salohiyatli, ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish, umuman olganda, ta‘lim-tarbiya tizimini

rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib kelinmoqda hamda bu borada beqiyos ishlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqil O'zbekiston davlati hamisha demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini o'zining asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga qo'yib kelmoqda. Zero, bugungi yoshlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratish hukumatimiz oldiga qo'yilgan eng oliy maqsadlardandir. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda yoshlar ijtimoiy-siyosiy kuch sifatidagi faoliyatining muhimligi va amaliy ahamiyati, O'zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, jamiyat hayotining barcha jabhalarini modernizatsiyalash va yangilash masalasi bilan chambarchas bog'liqligida hisoblanadi. Chunki, mamlakat aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil qiladi.

Yoshlarning bilim olishi, ta'lim-tarbiyasi, kasbiy tayyorgarligi masalalari O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, O'zbekiston yoshlari ijtimoiy-siyosiy faolligi masalalariga zamon talablari asosida e'tibor qaratish lozim. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab shaxsni har tomonlama kamolga yetkazish va rivojlantirish masalasiga alohida g'amxo'rlik ko'rsatilib, yoshlarga oid qonun, qaror va davlat dasturlari qabul qilindi hamda izchil ravishda hayotga tatbiq etilmoqda. Bu siyosatning mazmun-mohiyati, asosiy yo'nalishlari, yoshlarga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy kafolatlar O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 20-noyabrdagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonunida belgilab qo'yilgan. Qonunga ko'ra, yoshlar masalasi O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi yoshlarning bilim olishi, ta'lim-tarbiyasi, kasbiy tayyorgarligi, ijtimoiy-siyosiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy

iqtidorining to'liq ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iborat. Bu qonunning qabul qilinishi o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash yuzasidan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", "Maktab ta'limini rivojlantirishning umummilliy dasturi" kabi qator hujjatlar ishlab chiqilishga mustahkam zamin yaratdi.

Mamlakatning intellektual va ma'naviy salohiyatni yuksaltirishdan manfaatdor ekanligi, globallashuv sharoitida bilimlilik mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish va uning milliy boyligini ko'paytirishning muhim tarkibiy qismiga aylanib borayotganligi, aholining yuksak ma'naviy darajasi esa odamlarda huquqiy madaniyatni, erkin va demokratik huquqiy davlatda yashash hamda mehnat qilish qobiliyatini shakllantirish, o'z huquq va erkinliklarini anglash, ulardan shaxs, davlat hamda jamiyat manfaatlari yo'lida foydalanish imkonini beradi. Ta'lim tuzilishini modernizatsiyalash, uni demokratlashtirish, kompyuterlashtirish va insonparvarlashtirish, ta'lim dasturini erkin tanlash, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish tobora kuchayib bormoqda. Ta'limni fundamentallashtirish, ma'naviy mas'ul shaxsni shakllantirish, bilishni emas, balki fikrlashni o'rgatish zarurligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Zero, yosh avlodning har tomonlama kamol topishi uchun zamon ruhiga mos yangidan-yangi qonun loyihalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiq etish bo'yicha innovatsion loyihalar ishlab chiqish, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida sifat o'zgarishlariga erishish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish zarur.

Binobarin, hukumatimiz yoshlar bilan ishlashda asosiy e'tiborni, avvalo, ularni tabiatimizga begona bo'lgan g'arazli oqimlardan asrab, zamonaviy bilim va tajribaga, intellektual salohiyat va ilg'or texnologiyalarga ega, ma'naviy yuksak, komil insonlar etib voyaga yetkazish, jamiyatda o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlarga erisha olishiga va munosib o'rin egallashiga qaratadi.

Mustaqillik yillarida ma'naviyat va tarixiy xotira masalalari davlat siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etib kelmoqda. Chunki "millatning o'zligini anglashi tarixni bilishdan boshlanadi". Ushbu haqiqatni anglash masalasi davlat siyosati darajasiga

ko'tarilishi zarurligi ta'kidlangan edi. Saboq beradigan, ogohlikka undaydigan va donolik bag'ishlaydigan tarix bizlarni o'sha dahshatli yillardan qanchalik uzoqlashtirgan sayin, urush haqidagi muqaddas tarixiy xotira shunchalik buyuk ma'naviy kuchga aylana boradi. Zero, o'tmish xotirasiga ega bo'lmagan, o'z xalqining tarixiy tajribasidan mahrum kishi butunlay tarixiy istiqbolni his qilishdan ayrilib qoladi. Teran va dono bir hikmat bor, o'z qahramonlarining xotirasini muqaddas bilib e'zozlovchi xalqgina buyuk bo'lishga, buyukman deb da'vo qilishga munosibdir.

Xalqimizni o'z tarixi bilan qurollantirish ma'naviyat va milliy mafkurani shakllantirish sohasidagi kechiktirib bo'lmas vazifa ekanligi Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan mamlakatning tarixchi olimlari va jurnalistlari bilan o'tkazilgan suhbat (1998-yil 26-iyun) hamda "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asarda (1998-yil) o'z ifodasini topgan. Zero, "tarix xalq ma'naviyatining asosidir". Binobarin, mustaqillik sharofati bilan tarix, ayniqsa, Vatan tarixini o'rganish, uning uslubiya-tiga, "oq dog'lari"ga doir masalalar faol muhokama etila boshlandi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda jamiyat va shaxs masalalari, madaniy meros, til muammolari kabi masalalarni hal etishga intilish yuzaga keldi. Bu masalalarga bag'ishlangan ilmiy, ayniqsa, publitsistik maqolalar gazeta va jurnallar sahifalarida muntazam bosilib turdi. Ana shunday masalalar sirasiga kiradigan voqelikni xotirlab, Prezident Shavkat Mirziyoyev: "Barchangiz yaxshi eslaysiz, muhtaram Yurtboshimizning tashabbuslari bilan istiqbolga erishganimizning ikkinchi yili Sharof Rashidovning nomi to'la-to'kis oqlandi. O'sha yili u kishining 75 yilligi yurtimizda keng nishonlandi", deya ta'kidlaydi.

Respublikani juda murakkab va og'ir yillarda boshqarib, mamlakat taraqqiyoti yo'lida fidokorona xizmat qilgan, ijtimoiy va ijodiy faoliyati bilan milliy adabiyot va madaniyat rivojiga katta hissa qo'shgan atoqli davlat arbobi, taniqli yozuvchi Sharof Rashidovdek insonga nisbatan adolatsizlik qilindi. Inson tirik paytida uni ko'klarga ko'tarib, vafotidan keyin yer bilan yakson etsa, qadrini bebro' qilsa, bu o'zi qanday davlat, qanday jamiyat bo'ldi, deya hayqirasan kishi. Biroq, afsuski yaqin o'tmishimizda ana shunday achchiq va achinarli adolatsizlik sodir etildi. Bu borada

Prezident Sh.Mirziyoyev shunday xulosa yasaydi: “Lekin, tarix guvoh, hayotda shunday adolatsizliklar ham bo‘lar ekan. Agar har bir xalq, har bir davlat mustaqil bo‘lmasa, boshqalar uning nafaqat dehqonini, nafaqat ishchisini, hattoki shoiru olimini ham, davlat arbobini ham istagancha tahqirlashi, insoniy sha‘nini tuproqqa qorishi mumkin ekan”. Darhaqiqat, biz yaqin o‘tmishimizda kechgan ana shunday ayanchli voqealar misolida qo‘lga kiritgan mustaqilligimizning naqadar buyuk ne‘mat ekanligini, uning ahamiyati va mohiyatini, qadr-qimmatini yanada teran anglab etishimiz, uni har qanday yovuz kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turishimiz shartligini, sobiq sovetlar hududining ba‘zi o‘lkalarida eski tuzumni yana qaytarishga urinishlar bo‘layotgan hozirgi paytda bu achchiq haqiqatni hech qachon unutmasligimiz, mustaqillikning qadriga etishimiz zarurligini unutmasligimiz lozim. Tariximiz, eng avvalo o‘tgan buyuk siymolar xalq orasidan chiqqan shu omma taqdiri bilan hamnafas ajdodlarimiz hayot yo‘lida, ularning Vatan oldidagi benazir xizmatlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ana shu buyuk zotlarimizning bebaho merosi hamisha boshimizni baland, qaddimizni tik qiladi, o‘zbek millatining kelajagi buyuk davlat qurishda jahon ayvonida turib, o‘z iymoni, e‘tiqodlari, ma‘naviy ruhlari bilan qo‘llab-quvvatlab, olg‘a etaklaydi. Mustaqillik bergan buyuk ne‘matlardan biri ham shundaki, millatimizni o‘tmishi kamida uch ming yilga borib taqaladigan haqqoniy tarix bilan qurollantirish hamda uzoq va yaqin o‘tmishda yashab o‘tgan buyuk zotlarimizni hotirlab, ularning hurmatini bajo keltirish imkoniyatini berdi. Bu esa, yoshlarni ajdodlarga munosib avlodlar ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Millat o‘zligini qanchalik chuqur anglasa, o‘zining izzatini, qadr-qimmatini joyiga qo‘ysa, uni boshqalar ham ulug‘laydi, hurmat qiladi. Azaliy qadriyatlarimiz, islom diniga xos qoidalar, qadimiy an‘ana va qadriyatlarga sodiq o‘zbek millati o‘zining insonparvarlik g‘oyalari bilan asrlar osha nom qozonib kelmoqda. O‘zbek millatining bugungi kunida yaqqol namoyon bo‘layotgan insonparvarligi keksa yoshdagi ulug‘ kishilarga hurmat, kichiklarga mehr-shafqat, izzat, muhtojlarga xayr-sahovat qilish, ota-ona izmida turish, qarindosh-urug‘ning, qo‘ni-qo‘shnining og‘irini engil qilib, tashvishu-quvonchlariga sherik bo‘lish kabi insoniylik fazilatlari

behisobdir. Ana shu ezgu xislatlarga zid qarashlarni o'zida shakllantirgan xudbinlar, millatfurushlar, xoinlar, qora niyatli kishilar oz bo'lsa-da, uchraydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, millati uchun qayg'urgan, uni turli xil g'arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo'xtonlardan himoya qilgan, o'zbek xalqi boy madaniyatining ezgu g'oyalarini keng targ'ib qilishda jonbozlik qilgan insonlarni, millat g'ururiga aylangan insonlarni ulug'lash, ularning nomlarini abadiylashtirish bugungi kundagi eng dolzarb masaladir.

Hozirgi kunda ana shu noyob merosning qay darajada saqlanib, avaylanib kelinayotgani, uni har tomonlama o'rganish, keng omma, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish, jahon jamoatchiligiga targ'ib etish borasida amaliy ishlar faol olib borilmoqda. Vatanimiz kelajagi bo'lgan barkamol avlodni etishtirish uchun millatimizning har bir vakili o'z farzandini milliy g'oyamiz, qadriyatlarimiz, tilimiz, qadimiy tariximiz, madaniy boy o'tmishimizda chuqur iz qoldirgan buyuk siymolarimizga muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalash bilan birga jahoniy o'zigagina xos bo'lgan insonparvarlik, baynalmilallik, samimiylik va bag'rikenglik ruhida ham ta'lim va tarbiya berishimiz, bugungi kunda har qachongidan ham zarurroqdir. Dunyodagi har qanday millatning o'zigagina xos milliy qiyofasini namoyish etadigan, belgilab turadigan xususiyatlari bo'ladi: davlati, tili, dini, urf-odatlar, qadriyatlari, madaniyati, musiqasi, san'ati, mashhur shaxslari, ruhiyati, iftixor tuyg'usi... Nazarimizda milliy g'oya tushunchasi millatga xos bo'lgan, hozir sanab o'tilgan xususiyatlar zaminida shakllanadi, muayyan bir qolipga tushadi, uning tarixini shakllantiradi.

Bugunga kelib dunyoda o'ziga yarasha yuksak salohiyati, benazir nufuziga mos ravishda o'rin egallayotgan mustaqil O'zbekiston atalmish davlat bor ekan, bu yurtida ana shu nomga munosib millat yashamoqda. Bu yurtida uning ota-bobolari, avlod-ajdodlari, buyuk zotlari yashab o'tgan. Dunyoda millatlar ko'p, ular ichida buyuk tarixiy o'tmishga ega bo'lgan o'zbek millati ham bor. Jahon ahli O'zbekistonga qarab, bizning millat sifatidagi qiyofamizni, millatimizga xos bo'lgan bag'rikengligimizni ko'radi.

Xalqimizning otashqalb farzandi, mamlakat taraqqiyoti yo'lida fidokorona

xizmat qilgan, ijtimoiy va ijodiy faoliyati bilan milliy adabiyot va madaniyat rivojiga katta hissa qo'shgan atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidovning yorqin xotirasini ulug'lash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 27-mart kuni "Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida" gi qarorga imzo chekdi. Hamda mazkur yubiley tantanalari yuqori saviyada nishonlandi. Bu bilan el-yurtimiz taqdiriga daxldor tarixiy adolatni tiklash, ajdodlarimizning ezgu ishlari, jasoratini ulug'lash va abadiylashtirish, mamlakatimizda inson manfaatlarini ta'minlashga qaratilayotgan e'tibor xalqimizning inson xotirasi va uning qadr-qimmatiga ehtirom ko'rsatishdek o'lmas qadriyatlari, bebaho ma'naviy fazilatlarini namoyon etib kelmoqda.

Shu munosabat bilan tarixni dohiylar emas, balki ongli va bunyodkor inson, xalq yaratishi haqidagi fikrlar yangicha mazmun va falsafiy ruh bilan bayon qilindi. Haqiqatdan ham, tarixni xalq yaratadi, uni yaratishda faol qatnashgan, xalq ruhida, ongida va qalbida o'zlaridan chuqur va o'chmas iz qoldirgan tarixiy shaxslar ham xalq farzandlaridir. Shu sababli tarixchi mutaxassislar ramziy ma'noda tarixni uni yaratgan va yaratayotgan xalqning tarjimai holiga qiyoslashadi. Shuning uchun ham qadimgi tarix, o'rta asrlar tarixi, zamona tarixi kabi iboralar ishlatiladi. Bular yaxlit holatda Vatanimiz tarixini anglatadi.

Ma'lumki, xalqimiz o'zining ming yilliklar mobaynida shakllangan adolatparvar siyosati, ma'naviy barkamol milliy davlatchilik an'analari bilan jahon davlatchiligi va siyosati taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Xalq o'z tarixini asosan o'z davlatini qurishdan boshlab yaratishga kirishadi. Ma'lumki, turkiy tilli xalq o'z tarixida ko'plab buyuk va shavkatli saltanat qurgan xalqdir. O'z o'tmishimizga nazar tashlab, uning butun borlig'ini jamlab baholar ekanmiz xalqimizning voqealarga boy ko'p ming yillik tarixi davomida ko'p sinovlarni boshidan kechirganligi, madaniyat, ilm-fan, o'z davlatchiligi yutuqlaridan bahra olganligiga amin bo'lamiz. Shu bilan birga, tarixning o'yini ham, omonsiz jangu jadallar ham, tabiiy ofatlar va ochlik ham xalqimizning insoniylik tabiatiga dog' tushira olmaganligini teran anglaymiz.



Mustaqillik tufayli milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, Vatan uchun iftixor, g'ururlanish va shu singari boshqa tuyg'ular yana bir bor cho'qqiga ko'tarildi, xalqimizning mustaqil fikrlashi, ma'naviy dunyosi, ijtimoiy-siyosiy faolligi o'sib bordi, bu esa yangidan-yangi yutuqlar garoviga, kuch-qudrat manbaiga aylandi, intellektual salohiyatni yuksaltirdi. Shuningdek, o'tmishdagi buyuk zotlarimiz, Vatanni bosqinchilardan himoya qilgan, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, buyuk Sohibqiron bobomiz Amir Temur vasiyatlari va o'gitlarini hamda qoldirgan ulkan ma'naviy merosidan o'rnak va ibrat olishga hamda tariximizni haqqoniy o'rganishga, unga munosib baho berishga imkon yaratildi.

Bu imkoniyat tufayli mamlakatimizda buyuk zotlarning tavallud to'ylari har yili keng nishonlanib kelinmoqda. Darhaqiqat, buyuk zotlarni chuqur anglash, o'rganish asnosida milliy qadriyatlarimizni, qadimiy an'analarimizni, jahon sivilizatsiyasi tarixida o'chmas iz qoldirgan ajdodlarimizni yangi sharoitda yangidan yana bir bor kashf etamiz, qaytadan dunyoga tanitish imkoniyatiga ega bo'lamiz hamda voyaga yetayotgan kelajagimiz bo'lgan yoshlarga ibrat va namuna sifatida ko'rsatamiz, buyuk zotlarga munosib bo'lishga astoydil undaymiz. Inson xotira bilan tirik, qadri bilan ulug'. Osmonimiz musaffoligi, el yurtimiz tinchligi, sarhadlarimiz dahlsizligi yo'lida fashizmga qarshi mardlarcha kurashib, Vataniga, xalqiga, harbiy qasamyodiga sodiq qolib mardlik namunalarini ko'rsatgan Vatan fidoyilari xotirasini yod etib, ezgu ishlarni davom ettirish xalqimizga xos fazilatdir. Mard va jasur ota-bobolarimiz dunyodagi ezgu niyatli xalqlar qatorida bu mudhish urushda chinakam qahramonlik namunalarini ko'rsatdilar. Ularning so'nmas jasorati mana, 75 yildirki, biz uchun mardlik maktabi, g'urur-iftixor manbai bo'lib kelmoqda va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Mamlakatimizda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaning 75 yilligini munosib nishonlash, Ikkinchi jahon urushi va mehnat frontida ishtirok etgan mo'tabar faxriylarimizga yuksak e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, yosh avlod ongida eng katta, bebaho boylik - tinchlikni asrab-avaylash hissini qaror toptirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek fashizmga qarshi kurashishga hissa qo'shgan, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan

harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining xotirasini abadiylashtirish hamda barcha faxriylarga hurmat ko'rsatish zarurligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabani 75 yilligini munosib nishonlash to'g'risida"gi qarorida ta'kidlanib, "Vatandoshlarimizning urush yillarida jang maydonlarida ko'rsatgan jasorati, front ortidagi fidokorona mehnati, mamlakatimiz yoshlari uchun mardlik, matonat va oliyjanoblik hamda Vatanga muhabbat fazilatlarining yorqin namunasi bo'lib xizmat qiladi", dedi. Zero, fashizm ustidan erishilgan ulug' G'alaba, eng avvalo, ona Vatan muhofazasiga bardosh bera oladigan muqaddas va yengilmas kuchning tantanasi bo'lib, u osonlik bilan qo'lga kiritilgan emas. Urush millionlab begunoh insonlarning yostig'ini quritdi. Bugun yoshlarga o'tgan urushning saboqlaridan xulosa chiqarib, uning butun azobu-uqubatlari, dahshatu mashaqqatlari haqida gapirib berish kerak. Toki, ular tinchlik naqadar bebaho ne'mat ekanligini, el-yurt tinchligi, sarhadlarimiz dahlsizligi yo'lida kuyib, yonib yashash kerakligini, mardlik namunalarini ko'rsatgan Vatan fidoyilari xotirasini yod etib, ezgu ishlarni davom ettirish muqaddas burch ekanligini yaxshiroq va teranroq anglab yetsinlar. Buyuk ajdodlarimizni teran anglash, chuqur o'rganish asnosida milliy qadriyatlarimizni, qadimiy an'analарimizni, jahon sivilizatsiyasi tarixida o'chmas iz qoldirgan ajdodlarimizni yangi sharoitda yangidan yana bir bor kashf etamiz, qaytadan dunyoga tanitish imkoniyatiga ega bo'lamiz hamda kelajagi porloq bo'lgan yoshlarga ibrat va namuna sifatida ko'rsatamiz, buyuk zotlarga munosib bo'lishga astoydil undaymiz. Asrlar osha, dovonlar osha kelayotgan bu ma'naviy boylikning umri boqiydir. Bag'rikeng xalqimizning qadriyatlari – tinchlik, ma'rifat, yuksak ahloq-odob ifodachisi sifatida vaqtlar o'tgan sayin, zamonlar kechgan sayin yulduzdek yarqirab, chiroy ochaveradi, kelajagi buyuk bo'lgan yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda muhim omil sifatida xizmat qilaveradi. Bu haqiqatni chuqur anglagan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "...har bir suveren davlat o'zining betakror tarixi va madaniyatiga egadir. Bu tarix, bu madaniyatning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi esa, haqli ravishda shu mamlakat xalqi hisoblanadi. O'zbek xalqining necha ming yillik tarixida qanday murakkab davrlar,

og‘ir sinovlar bo‘lganini barchamiz yaxshi bilamiz. O‘zbekistonning eng yangi tarixi va biz erishgan olamshumul yutuqlar mard va matonatli xalqimiz har qanday qiyinchilik, to‘siq va sinovlarni o‘z kuchi va irodasi bilan engib o‘tishga qodir”. Zero, ajdodlarimizning bebaho tarixiy merosi – abadiyatga daxldor ma’naviy xazina ekanligini chuqur anglansa, tarixiy xotiramiz qanchalik boy, mazmunli bo‘lsa, xalq shunchalik uyushgan, hamjihatlikda yurt taraqqiyoti yo‘lida beqiyos o‘rni va ulug‘vor ishlarni bajarishga qodir bo‘ladi. Shu bois, ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ma’naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarixiy xotiraning o‘rni va saboqlari to‘g‘risidagi fikrlari “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanining mazmun-mohiyatini talabalarga yetkazishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda yuksak ma’naviy va axloqiy fazilatlarga ega, bilimli, samarali mehnat qilishga qodir fuqarolar jamiyatning eng muhim boyligi va asosiy kapitali, uni harakatga keltiruvchi kuch ekanligini teran anglash asnosida milliy qadriyatlarimizni, qadimiy an‘analarimizni, jahon sivilizatsiyasi tarixida o‘chmas iz qoldirgan ajdodlarimizni yangi sharoitda yana bir bor kashf etamiz, qaytadan dunyoga tanitish imkoniyatiga ega bo‘lamiz hamda yoshlarga ibrat sifatida ko‘rsatamiz, buyuk zotlarga munosib bo‘lishga undaymiz. Ta’lim tuzilishini modernizatsiyalash, uni demokratlashtirish, kompyuterlashtirish va insonparvarlashtirish, ta’lim dasturini erkin tanlash, uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish tobora kuchayib bormoqda. Ta’limni fundamentallashtirish, ma’naviy mas’ul shaxsni shakllantirish, bilishni emas, balki fikrlashni o‘rgatish zarurligi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Zero, yosh avlodning har tomonlama kamol topishi uchun zamon ruhiga mos yangidan-yangi qonun loyihalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha innovatsion loyihalar ishlab chiqish, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida sifat o‘zgarishlariga erishish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish zarur.

Yoshlar bilan ishlashda asosiy e’tiborni, avvalo, ularni tabiatimizga begona bo‘lgan g‘arazli oqimlardan asrab, zamonaviy bilim va tajribaga, intellektual salohiyat va ilg‘or texnologiyalarga ega, ma’naviy yuksak, komil insonlar etib

voyaga yetkazish, jamiyatda o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlarga erisha olishiga va munosib o'rin egallashiga qaratadi.

Bugungi hayotimizni Internet, kompyuter tarmog'isiz tasavvur etib bo'lmaydi. Axborot texnologiyalari tufayli uzog'imiz yaqin, mushkulimiz oson bo'lmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda yoshlarning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Bu borada Prezident Sh.Mirziyoyev shunday deydi: "Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarning chuqur ma'nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi. Haqiqatan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligini va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda". Binobarin, hukumatimiz bunday yoshlarni tarbiyalash va ular bilan ishlashda, istiqbol rejalarini tuzishda asosiy e'tiborni, avvalo, ularni tabiatimizga begona bo'lgan turli ko'rinishdagi ijtimoiy illatlardan asrab, zamonaviy bilim va tajribaga, intellektual salohiyat va ilg'or texnologiyalarga ega, ma'naviy yuksak, komil insonlar etib voyaga yetkazish, jamiyatda o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlarga erisha olishiga qaratadi.

Mustaqillik tufayli milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, Vatan uchun iftixor, g'ururlanish va shu singari boshqa tuyg'ular yana bir bor cho'qqiga ko'tarildi, xalqimizning mustaqil fikrlashi, ma'naviy dunyosi, ijtimoiy-siyosiy faolligi o'sib bordi, bu esa yangidan-yangi yutuqlar garoviga, kuch-qudrat manbaiga aylandi, intellektual salohiyatni yuksaltirishga imkon yaratildi.

## **2-AMALIY MASHG‘ULOT: Sharq tarixnavisligida tarix fani ilmiy-nazariy masalalarining zamonaviy tadqiqotlari. (2 soat)**

Ijtimoiy va tabiiy fanlar uslublarining o‘zaro bog‘liqligi. Tarix fanining kompleks xarakterliligi. Abu Rayhon Beruniyning tarixiy ilmiy qarashlari zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlari. Tarixiy manba, axborot va uning xususiyatlari. Axborotning nazariy manba sifatidagi o‘rni. Manba axborot tashuvchi. Yaqqol va yashirin axborot.

Musulmon tarixshunosligi shariat va islom aqidalari bilan bevosita bog‘liqdir. Musulmon olimlari tarixiy voqealarni islom aqidalari, Allohning qudrati va qazoi taqdir bilan bog‘laydilar. Qur’oni karimda aytilishicha, inson tirik ekan, u Allohning irodasi bilan ish ko‘radi. Tarixchi esa jamiyatda yuz beradigan voqealarning sabablarini shariat qoidalari bilan uyg‘unlashtirishi zarur edi. Chunki har qanday mantiqiy fikrlash voqealarning sababini aniqlashni taqozo etadi. Musulmon tarixchilari bu murakkab vaziyatda o‘ziga xos yo‘l topdilar. Ular voqealarning kelib chiqish sabablarini bayon etib, bu sabablar ham Allohning irodasi ekanligini e‘tirof etdilar. Musulmon tarixchilari ko‘p o‘rinlarda Qur’on suralari va oyatlarga asoslanadilar. Islom ta’limoti tarqalishi tarix fanining sezilarli darajada rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Ana shu davrda (VII asrdan boshlab) arablar, forslar, turkiy mutafakkirlar (Abu Abdullo Muhammad Ibn Muso al - Xorazmiy (783-850 y.), Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy (973-1048-y.), Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy (839-923-y.), Ibn Xaldun va boshqalar) Sharq tarixchiligiga asos soldilar. Jumladan, Beruniy “Osorul-boqiya anil-qurunil-xoliya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) asarini Juijonda yoza boshlagan va 1000 yilda tamomlagan. “Osorul-boqiya” Beruniyga juda katta shuhrat keltirdi, uni fanning hamma sohasiga qiziquvchi buyuk olim ekanini ko‘rgatdi. Bundan tashqari, Beruniy Juijonda astronomiya, metrologiya tarixiga oid 10 dan ortiq asar yozdi. Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy tomonidan Tarix at-Tabariy. “Tarix al umam val-”

muluk” (“Xalqlar va malik (podsho)lar tarixi”) asari yozilgan va bu asarda Odam alayhissalomdan o‘zi yashagan asrgacha bo‘lgan tarixni isbotlari bilan keltiradi, bu asar yetti yilda yozilgan. Ibn Xaldunning asosiy tarixiy-etnografik asari “Muqaddima”ning “Kirish” qismi nazariy ahamiyatga egadir. Ibn Xaldun fikrining originalligi uning tarix predmeti va vazifasini tushunishda ko‘rinadi. Ibn Xaldun tarixning ikki jihatini ajratib ko‘rsatadi. Tashqi tomondan qaraganda tarix rivoyat, ajdodlar haqidagi xabar bo‘lsa, ichki tomondan qaraganda tarix - bu “haqiqatni tiklash, borliqning asosi va boshini aniqlash, voqealar qanday va nima sababdan yuz berganligi haqidagi chuqur bilim”. Ibn Xaldun keng tarqalgan birinchi fikrdan ancha uzoq bo‘lib, ikkinchi nuqtayi nazar tarafdori edi. Tarixning vazifasi barcha ijtimoiy voqeliklar mohiyatini aniqlashdan iborat bo‘lganligi sababli tarix falsafiy fanlarga kiritilishi kerak, deb hisoblaydi. Ibn Xaldun nafaqat tarixni fanga aylantirishga, balki tarix nazariyasini yaratishga harakat qiladi. Ta’kidlash joizki, mazkur arab mutaffakkirining qarashlari Gegel g‘oyalariga o‘xshab ketadi. Shu bilan birga tarix predmetini talqin qilishda Ibn Xaldun Volterga va XVIII asr fransuz materialistlariga yaqin edi. Ular singari tarixchi axloqning, oilaviy va qabilaviy ruhning ijtimoiy holatini, aholi qatlami o‘rtasidagi farqlarni, bir xalqni ikkinchi xalqdan ajratib turadigan jihatlarni o‘rganish va tushuntirish bilan mashg‘ul bo‘lishi lozim edi. XIV asr uchun tarix predmeti va vazifasini bu tarzda talqin qilish butunlay yangicha konseptual fikr edi. Ibn Xaldun “Men kitob yozishda hali yurilmagan so‘qmoqni va hali aniq bo‘lmagan yo‘lni tanladim... Men ijtimoiy hayotning va shahar turmushining turli holatini va shahar jamiyatining muhim belgilarini tushuntirdim”. “Bu fan, - deb tushuntiradi Ibn Xaldun, — ...o‘zining maxsus obyektiga ega bo‘lib, u sivilizatsiya va insoniyat jamiyatidir, bundan tashqari, u jamiyat mohiyati bilan bog‘liq ma’lumotlarni tushuntirishga xizmat qiladi... Bizning fikrimiz originalligi bilan, shuningdek, ulkan foyda keltirishi nuqtayi nazaridan yangi fanni ochib berdi. Biz uni kashf qildik”. Ibn Xaldun sivilizatsiya tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan dastlabki olim bo‘lishi mumkin. U sivilizatsiyaning vujudga kelishi va mavjudligini shahar bilan bog‘laydi. G‘arbiy Yevropa adabiyotida “sivilizatsiya” tushunchasi XVIII asr o‘rtalarida vujudga kelgan (Tyurgo, 1752; Mirabo, 1757;

Fergyuson, 1759). Yevropa mutafakkirlari ham sivilizatsiyani shahar madaniyati fenomeni bilan bog‘lab ko‘rsatgan. Ibn Xaldun tarixiy jarayonga sivilizatsiya nuqtayi nazaridan qaragan va shuning uchun tarixning vazifasi faqat jamiyatdagi avlodlar almashinuvini bayon qilish, balki turli xalqlarning sivilizatsiya xususiyatlarini tushuntirishdan iborat, degan fikmi ilgari surgan. Yangi fanning xususiyatlari haqida gapirar ekan, Ibn Xaldun sivilizatsiya tarixini tushuntirish jamiyatdagi ma’lumotlardan kelib chiqadi, deb hisoblaydi. Shuning uchun o‘quvchi o‘tmish davr va xalqlar tarixi bilan tanishib, “kelajakda bo‘ladigan voqealarni oldindan ko‘ra oladi”, tarixning foydali jihati shu bilan bog‘liq. Uning nuqtayi nazaridan dunyodagi barcha holatlarning sababi mavjud. Barcha narsa ma’lum bir tartib va qonuniyatga ega. Dunyo bir-biriga o‘tib turadigan murakkab jismlar - minerallar, o‘simliklar, hayvonot olami, inson ketma-ketligidan iborat. Inson - dunyoning eng yuqori darajasi bo‘lib, u hayvonot olamidani qonuniy ravishda vujudga kelgan va undan yuqori pog‘onani egallagan. Ibn Xaldun ta’kidlashicha, inson aql va ongli faoliyati bilan ajralib turadi. U yashash uchun manba topish uchun mehnat asosiy o‘rin tutishiga alohida e’tibor qaratiladi. Ibn Xaldun asalari va chigirtka ham mehnat qilishi, lekin ular faoliyati fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lmasdan “hisobotsiz istak” natijasida ro‘y berayotganligini ko‘rsatadi. Inson faoliyati esa ongli, aniq bir maqsadga qaratilgan, degan fikmi ilgari suradi. Fikrlash qobiliyati va mehnat qilish qobiliyati evaziga insonlar hayvonot olamidani ajralib turadi, fan va hunarmandchilikning vujudga keladi. Ibn Xaldun fikriga ko‘ra, inson hayotida turli faoliyatning roli turlichadir. Inson doimiy ravishda yashash manbaiga ehtiyoj sezadi va Alloh ularni ishlab topish yo‘llarini ko‘rsatadi. Shuning uchun mehnat faoliyati “zaruriyat va tabiiy” bo‘lganligi sababli ilmiy bilimlardan ko‘ra muhimroqdir. Muallif nima sababdan uning kitobida yashash manbai haqidagi bob ilm to‘g‘risidagi qismdan oldin berilganligini tushuntirgan. Musulmon mamlakatlaridagi xalqlarning turli-tumanligi g‘oyalarning ham g‘aroyib tarzda aralashib birikib ketishiga olib keldi. Islomdan avval turkiy xalqlarning asosiy e’tiqodi shomonizm bilan bog‘liq bo‘lib, hatto Baqtriya markazi Balx shahrida buddaviylarning yirik diniy qasri - ehromi bor edi. O‘rta Osiyoda yana zardushtiylar va manixeylar - moniylar yonma-yon yashar edilar. Arablar O‘rta

Osiyoga yangi diniy ta'limot - islom ta'limoti bilan birga yangi yozuvni ham olib keldilar. Arab yozuvi asta-sekin butun Eron va Turonga yoyilib, Abbosiylar hukmronligining ikkinchi asriga (ya'ni X asrga) kelib, murakkab o'rta forsiy-paxlaviy yozuvini siqib chiqardi. Musulmonlarning muqaddas kitobi Qur'oni karim arab yozuvida bitilgani, shuningdek arab alifbosi nisbatan ilg'orligi, tovush larga asoslangani, ya'ni har bir fonema - tovushga alohida belgi-harf borligi ham katta ta'sir ko'rsatdi. Shunday qilib, VIII asrdan XX asrning boshlariga qadar bo'lgan O'rta Osiyo tarixi tarixshunosligiga doir nodir qo'lyozma asarlar mavjud. O'rta asrlarda yaratilgan bazi tarixiy asarlarda, jumladan, Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" va "Hindiston", Abu Bakir Narshaxiyning "Tarixi Buxoro", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafamoma", Bobuming "Bobumoma", Muhammad Yusufbek Bayoniyning "Tarixiy Xorazm", "Shajarai Xorazmshohiy", Ahmad Donishning "Buxoro amirligining tarjimai hollari" va boshqalarda muayyan ma'lumotlarni umumlashtirishga, fakt va tarixiy jarayonlar bayonida tahliliy yondashuvga bo'lgan harakatlar kuzatiladi. Abulg'azi Bahodirxon yetuk tarixchi olim sifatida e'tiborga sazovordir. Uning "Shajarayi tarokima" va "Shajarayi turk" asarlari O'rta Osiyo xalqlari tarixiga oid qimmatli manbalardan hisoblanadi. "Shajarayi tarokima"da turklarning afsonaviy podshosi O'g'uzxon, avlodi va ularning zamonida yuz bergan voqealar qisqacha bayon etilib, turkman urug'lari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Ikkinchi asar asosan Chingizxon va uning avlodlari, xususan Xorazmda 1512-yildan hukmronlik qilgan Shayboniylar haqidadir. Abulg'azixonning bu asarlari rus, fransuz, nemis tillariga tarjima qilinib chop etilgan. "Jome' ut-tavorix" (Solnomalar majmuasi) qomusiy olim Rashiddin Fazlulloh ibn Imomuddavla Abulxayr tomonidan 1302-1311-yillarda yozilgan. Uch qismdan iborat. Birinchi qism ("Tarixi G'oziy") da turk-mo'g'ul xalqlarining Chingizxongacha bo'lgan tarixi, Chingizxon tuzgan yirik feodal davlat, Chingizxonning yurishlari, unga qaram bo'lgan mamlakatlar tarixi, XII-XIII asrlarda Shimoliy-Sharqiy Osiyoda ko'chib yurgan turk va mo'g'ul qabilalarining kelib chiqishi va ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o'rnini keng sharhlanib, G'ozonxon (1295-1304) o'tkazgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar batafsil yoritilgan.



Asaming ikkinchi qismi Sulton O'ljoyturkon (1304-1317) ning topshirig'i bilan elxoniylar saroyida istiqomat qilib turgan chet ellik olimlar (kashmirlik baxshi Kamalashri, xitoylik Li Da-chji, fransiyalik bir monax, ikkita fors olimi vah. k.) ishtirokida yozilgan. Asarda mo'g'ul istilosiga qadar musulmon olamining tarixi, shuningdek yahudiylar, Yevropa, Vizantiya, Rim, Xitoy va Hindiston tarixi bayon etilgan. Uchinchi qism jo'g'rofiy asar bo'lib, "Yetti iqlim", ya'ni olamning inson istiqomat qilib turgan to'rtidan bir qismi tavsifiga bag'ishlangan. Bu qism bizgacha yetib kelmagan. Rashiddinning "Jome' ut-tavorix" asari Sharq va G'arb olimlarining e'tiborini ko'pdan beri jalb etib kelyapti. XV asrda Eronning yirik tarixchilaridan biri "Jome' ut-tavorix"ning davomini yozib, Eron tarixini 1371-yilgacha davom ettirgan. Hofizi Abruning bu asari "Zayli jom e' ut-tavorix" ("Jome' ut-tavorix"ga qo'shimcha") nomi bilan mashhur. O'rta asrlarda Yevropa tarixchilari orasida xristian dini g'oyalari hukmronlik qildi. XVIII asrda Yevropa ma'rifatparvarlari - Volter, Monteske, Golbax, Russo va boshqalar - tarix qonuniyatlari haqidagi masalani ko'tarib chiqishdi. XVIII va XIX asrlar chegarasida tarix bilim sohasi sifatida fanga aylana boshladi. Keyinchalik Gegel tarixda erkinlik va zaruriyat muammosini ko'tarib chiqdi. K.Marks tarixning materialistik konsepsiyasini yaratdi. XVIII va XIX asrlarda tarixning rivojlanishiga V.N.Tatishev, N.M.Karamzin, S.M.Solovev, N.I.Kostomarov, V.O.Klyuchevskiy va boshqalar katta hissa qo'shgan. XX asrda tarix jamiyat to'g'risidagi nisbatan "yosh" fan sotsiologiya fani bilan bog'liq holda faoliyat yurita boshladi. Tarix fani rivojiga katta hissa qo'shgan mashhur sotsiologlar Maks Veber va P.A.Sorokinlar edi. XX asrda Yevropadagi mashhur tarixchilar qatoriga M.Blok, L.FevrF.Brodel, A.Toynbi kabi tarixchilarni kiritish mumkin. M.Blok va L.Fevrlar tomonidan tarixga va tarixchilik kasbiga yangi yondashuvlar jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy hamda ma'naviy jabhalarini tadqiq etish o'rtasidagi uzilishni yo'qotishga qaratilgan tarixiy sintez usulidan foydalanishni ilgari surdilar. Tarixiy tadqiqotlar markaziga inson, uning tasawurlari, qo'rquvlari, umidlari, qabul qilish stereotiplari va o'zini tutish modeli qo'yila boshladi. Yangi yondashuvning yana bir yangi jihati bayon qilishdan voz kechib, muammolar qo'yish va farazlar ishlab chiqishga, tadqiqot obyektiga munosabatni

o'zgartirishga qaratilgan. O'tmishda yashagan insonlarni o'rganish asnosida tarixchilar ular bilan dialogga kirishadi, tarixiy tadqiqotga ularning qadriyatlarini va fikrlashlarining boshqa jihatlari bilan birga tarixchining ham qadriyatlarini jalb qiladi. Mazkur dialogda tarixchiga faol rol beriladi, uning bilish imkoniyatlari, ijodiy jasorati yuqori baholanadi. Pozitiv metodologiyada tarixiy tadqiqotlarda obyektlarga ustun o'rin berilgan bo'lsa, endi o'rganayotgan subyektga ustun o'rin beriladi. Fransuz tarixchilari M.Blok va L.Fevr antropologiyaga yo'naltirilgan tarix fanidagi muammolarni ishlab chiqdi, ularning tarix fani rivojlanishiga qo'shgan hisssasi "Kopemik to'ntarishi" deb baholanadi<sup>26</sup>. "Yangi tarix fani" vakillari nafaqat maxsus tarixiy tadqiqot usullaridan foydalanishgan, balki tadqiqotlarida boshqa ijtimoiy gumanitar fanlarning tadqiqot usullarini ham qo'llashgan, ya'ni fanlararo yondashuvdan foydalanishgan. Bu borada L.Fevr yozishicha, "Tarix matnlardan foydalanishi kunday ravshan. Lekin ular nafaqat matndan, balki kelib chiqishi turlicha bo'lgan har xil manbalardan foydalanadi. Avaldan qo'llanib kelingan manbalardan tashqari, yangi fanlar rivojlanishi, ayniqsa, statistika, demografiya, lingvistika, psixologiya kabi fanlar manbalaridan ham foydalanadi. Tarix fani yakkalik va o'zi bilan chegaralanishdan voz kechish uchun bir-biridan uzoq hamda yaqin fanlar orasida aloqaning yangi shakllarini doimiy ravishda o'rnatishi, turli fanlarning e'tiborini bir xil obyektga jamlashi tezkorlik bilan qilinadigan va o'z samarasini beradigan vazifadir. Gap faqat tushunchalarni o'zlashtirish haqida ketmaydi. Hirinchi navbatda tadqiqot usullari va ruhini o'zlashtirish lozim". "Annallar maktabi" asoschilari M.Blok va L.Fevrning eski, voqeaviy tarix, ayniqsa, siyosiy va diplomatiya tarixi tarafdorlari bilan tortishuvida XX asrning 50-yillarida G'arb tarixshunosligida "yangi tarix"- "uzoq muddatlilik" tizimi tarixi, iqtisodiy va ijtimoiy tarix yengib chiqdi. Tarix fanida "ommaviy tarix" konsepsiyasi qaror topdi, A.Ya.Gurevich ta'biri bilan aytganda, tarixiy hayotning turli darajalari to'g'risida yaqqol tasavvur qilish imkonini berdi. "Ommaviy tarix" tushunchasi antropolog Marsel Moss (1872-1950; "Tana texnikasi", "Qobiliyat haqida lavhalar" asarlari) ilgari surgan "ommaviy ijtimoiy fakt" nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, jamiyatda insonning har tomonlama faoliyatining turli jihatlari bir-biri bilan chambarchas

bog'liqligi alohida ta'kidlanadi. "Ijtimoiy ommaviy tizim"lar to'g'risida yozgan fransuz sotsiologi Jorj Gurvichning g'oyalari F.Brodelning qarashlari iga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Aynan L.Fevr o'limidan so'ng 1956-yilda jumalni boshqargan "Annallar" maktabining ikkinchi avlodi vakili F.Brodel ijodida tizimlar tarixini yoritishga alohida e'tibor berildi. B.G.Mogilnitskiyning bahosiga ko'ra, uzoq davriy chegarani o'z ichiga olgan va tarixni bir butunlikda o'rganishga asoslab yozilgan "Moddiy sivilizatsiya, iqtisod va kapitalizm, XV-XVIII asrlar" fundamental asarini yaratgan F.Brodel bu yuz yillikda insoniyat ommaviy tarixini yaratgan muallif sifatida XX asr tarixiy lafakkuri tarixiga kirdi. Ushbu asar o'zida fanlararo g'oyani mujassamlashtirgan va muallifning "faqat tarix fani inson haqidagi barcha fanlarni birlashtirish imkoniyatiga ega, u boshqa fanlarning tushuntirishlarini bir-biriga bog'laydi va fanlararo ijtimoiy fanbo'la oladi". F.Brodel va uning tarafdorlarining qiziqishlari asosan "katta tarixiy davr"da iqtisodiy munosabatlarni, o'tmishning moddiy hayoti, kundalik hayot rekonstruksiyasiga qaratilgan". Insonlar mentaliteti, fikrlash uslublari va ularning idrok qilishi ikkinchi darajaga tushib qolgan. 1960-yillar boshida "Annallar" maktabining uchinchi avlodi vakillari R.Mandru va J.Dyubi tarixga "tirik" insonni qaytarish tarafdori bo'lib chiqadi hamda tarixning egasiz qolishiga qarshi chiqadi, ularni yosh tarixchilar guruhi - J.Le Goff, A.Byurger, M.Ferro va boshqalar qo'llab-quvvatlaydi. F.Brodelning yondashuvi mavhumligi, qoliplarga solib tasvirlanganligi va "inson yo'qotilganligi" sababli tanqid ostiga olinadi.

## V. GLOSSARIY

**Abstraktlashtirish** - bu usul universal xarakterga ega bo‘lib, tafakkurning har bir qadami ushbu jarayon bilan bog‘liq. Bu usulning mohiyati asosiy bo‘lmagan xususiyatlarga, aloqalarga, munosabatlarga e‘tibor qaratmasdan, predmetning tadqiqotchini qiziqtiradigan asosiy bir nechta tomonlarini tadqiq etishga e‘tibor qaratiladi. Abstraktlashtirish jarayoni ikki bosqichli murakkab xarakterga ega. Birinchi bosqichda muhim jihatlari muhim bo‘lmaganlaridan ajratib olinadi. Aynan shu bosqichda voqeliklarning turli tomonlari va omillari baholanadi. Ikkinchi bosqichda esa turli xususiyatlarga boy boigan obyekt bilan almashtiriladi. Abstraktlashtirish jarayoni boshqa tadqiqot usullari bilan, ayniqsa analiz (tahlil) va sintez usullari bilan chambarchas bog‘liqdir.

**Abstraktlikdan konkretlikka o‘tish** tafakkurning asosiy usullaridan biridir. “Abstraktlik” asosan inson bilimlarini tasniflash uchun ishlatiladi. Abstraktlik deganda bir tomonlama, to‘liq bo‘lmagan, predmetning asosiy mohiyatini ochib bermaydigan bilim tushuniladi. “Konkretlik” odatda ikki xil ma’noda ishlatiladi. 1) voqelik, turli xususiyatlarga ega bo‘lgan obyektlar; 2) obyekt haqida ko‘p qirrali, har tomonlama, tizimli bilim.

**Agregativ metod** - barcha tur va ko‘rinishdagi manbalardan olingan tarqoq faktlarni jamlash.

**Analiz** (tahlil) (yunoncha - ajratish, parchalash) - bir predmetni tarkibiy qismlarga ajratish orqali ilmiy tadqiqot olib borish usuli.

**Analogiya** - bu aynan bir xillik emas, sifat jihatidan turlicha bo‘lgan tizimlar haqida analogiya asosida xulosa chiqariladi.

**Gender tarixi** - “Xotin-qizlar tarixi”dan farqli ravishda o‘z predmeti sifatida jinslar dialogini tanladi. Gender tarixi tarixiy tadqiqotlarda fanlararo yondashuvning namoyon bo‘lishi bo‘lib, yangi ijtimoiy tarixning yaxlitligini tiklashga qaratilgan. Gender tarixining predmeti ijtimoiy munosabatlarning muhim jihatlari biri bo‘lgan erkaklar va ayollar o‘rtasidagi munosabatlar hamda ularning makro tarixiy kontekstda namoyon bo‘lishi hisoblanadi. Gender

tarixi jinslarning ijtimoiy-madaniy farqlari va jinslar ierarxiyasi to'g'risidagi tasavvurlar kelib chiqqan holda ularning funksiyasini tarixiy retrospektivada ko'rsatadi. Gender munosabatlari dinamikasi ijtimoiy-tarixiy rivojlanishning umumiy konsepsiyasiga qo'shilib ketadi.

**Ijtimoiy antropologiya** - inson va jamiyatni, ularning rivojlanish qonuniyatlari va madaniy xilma-xilligini o'rganuvchi fanlararo fandır. Ilmiy bilish metodologiyasi - ilmiy tadqiqot faoliyatining tamoyillari, shakllari va yo'llari haqidagi ta'limot.

**Kuzatish** - inson hissiy organlari orqali faol bilish jarayonidir. Kuzatish nazariy va amaliy harakatlar asosi bo'lib xizmat qilishi uchun predmet va voqealarning xususiyatlari haqida ma'lumot berishi zarur. Bilishning samarali usuli bo'lishi uchun kuzatish bir nechta talabga javob berishi lozim: 1) rejali; 2) yo'naltirilgan; 3) faol; 4) tizimli.

**Metodika** (uslubiyat) - tadqiqot usullari va yo'llari yig'indisi, ularni qo'llash tartibi va ular yordamida olingan natijalarni talqin qilish. U tadqiqot obyekti, metodologiyasi, maqsadi, usullari, tadqiqotchining umumiy tayyorgarlik darajasi bilan bog'liq.

**Metodologiya** - u yoki bu fanning asosini tashkil etuvchi umumiy tamoyillar, usullar, qarashlar tizimi.

**Tadqiqot obyekti** - o'rganish uchun tanlangan muammoviy vaziyatni keltirib chiqaruvchi jarayon yoki voqelik.

**Tadqiqot predmeti** - tadqiqot obyekti chegarasida ma'lum aspekti o'rganiluvchi narsalar. Tadqiqot predmeti aniq bo'lib, y tadqiqotda bevosita o'rganiladigan munosabat va aloqalami o'z ichiga oladi. Har bir obyektida bir nechta tadqiqot predmetlarini ajratish mumkin. Tadqiqot predmetidan umumiy vazifalar va maqsad kelib chiqadi.

**Tamoyil** (prinsip) - qandaydir bir nazariya, ta'limot, fanning asosiy boshlang'ich holati.

**Tarixiy tadqiqot predmeti** - bilish jarayoniga kiritilgan obyektning bir qismi. U ko'p aspektli bo'lib, har doim tizimli xarakterga ega. Tarixiy tadqiqot

predmetini doimo tarixiy tadqiqot obyekt bilan uzviy ravishda ko'rish kerak.

**Tarix metodologiyasi** - tarix fanining usullar haqidagi qismi. XIX asrning birinchi yarmidan bu tushuncha ishlatila boshlagan. Atama dastlab nemis tarixchilari tomonidan usul haqidagi ta'limot (Methodenlehre) va o'quv fanining nomi sifatida ishlatilgan. Hozirgi kunda "metodologiya" tushunchasi nafaqat dastlabki holatida, balki tarixiy bilishning nazariy asosi sifatida qo'llaniladi. Tarixchining tadqiqot amaliyotini umumiyashtirgan holda metodologiya bilishga ongli ravishda munosabatda bo'lish, usullar va nazariy tamoyillarni ishlab chiqish va ongli ravishda ularni tadqiqotga qo'llash imkoniyatini beradi. Metodologiya qo'yilgan muammolarga tayyor javob bermaydi, ammo muammolarni qanday yechishni o'rgatadi. Tarix fanining umumiy metodologiyasi mavjud emas. Tarixchining nazariy pozitsiyasi uning tanlovi yoki mustaqil ijodi va bilim darajasi, ijtimoiy muhit bilan bog'liq.

**Tarixiylik** - tarixning mustahkam qonuniyatlari mavjudligiga ishonch va ijtimoiy rivojlanishning azaliy xarakterga ega ekanligiga asoslangan konsepsiya. Bunga asoslanib tarixiylik tarafdorlari tarixiy bashorat qilish mumkin deb hisoblaydi.

**Taqqoslash** - bilishning eng keng tarqalgan usullaridan biridir. Taqqoslash predmet va voqealarning o'xshash jihatlari hamda farqlarini aniqlash imkonini beradi. Taqqoslash natijasida ikkita va undan ortiq obyektga xos bo'lgan umumiylik aniqlanadi. Taqqoslash yordamida predmetning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari ma'lum bo'ladi. Voqeliklarda takrorlanadigan umumiylikni aniqlash qonuniyatlarni bilish yo'lidagi bosqich hisoblanadi. Taqqoslash samarali bo'lishi uchun 2 ta asosiy talabga javob berishi lozim: 1) o'rtasida umumiylik mavjud bo'lgan voqeliklar taqqoslanishi lozim; 2)obyektlarni o'rganish uchun muhim, asosiy jihatlari taqqoslanishi lozim.

**Haqqoniylik** - inson irodasi va ongi bilan bog'liq bo'lmagan holda dunyo, predmetlar va ularning xususiyatlari mavjud bo'lishi.

## **VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O'zbekiston strategiyasi” “O'zbekiston”, 2021.- 464 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
8. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvar “2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentabr “Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PQ-3290-sonli Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4910-son Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi

“Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risda” 296-son Qarori.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

13. Голованов А.А., Саидов И.М., Дехканство Узбекистана на историческом повороте второй половины XIX-первой трети XX вв. Т.: Самарканд 2007.
14. Исоқов З. Фарғона водийси анъанавий деҳқончилик маданияти. Т.: “Yangi nashr” 2011.
15. Насриддинов Қ. Суғорма деҳқончилик атамаларининг қисқача изоҳли луғати. Ўқув қўлланма. Т.: “Янги аср авлоди” 2008.
16. Мусаев Н.У. Ўрта Осиёда деҳқончилик маданияти ва аграр муносабатлари тарихи. – Т.: Фан, 2005Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура.1-жилд. Т.: Ўзбекистон,1996.
17. Sagdullayev A.S., Mavlonov O‘. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. -T., 2006.
18. Ртвеладзе Э.В. История государственности Узбекистана. -Т.: Узбекистан. 2009.
19. Ешов Б.Ж. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи. (ўқув қўлланма). - Т.:Маърифат, 2009.
20. Yo‘ldoshev S.V., Tojiboyev M. Etnotoponimika. O‘quv qo‘llanma/-Farg‘ona: 2021.
21. Ahmadaliyev Y. Farg‘ona viloyati toponimlari. Farg‘ona., “Farg‘ona”.2009
22. Гумилев Л. Этногенез и биосфера земли. -Л.: Гидрометиздат. 1990.
23. Бобров И.В. и др. История мировых цивилизаций часть I. Учебное пособие. Тюмень 2004
24. Бобров И.В. и др. История мировых цивилизаций часть II. Учебное пособие. Тюмень 2004



25. SH.Ergashev. Qadimgi sivilizatsiyalar. - T.: O'zbekiston, Tixonravov Y.V. Geopolitika. M., 2000.
26. Гаджиев К.С. Введение в геополитику. М., 2001.
27. Нартов Н.А. Геополитика. М., 2002.
28. Xo'janov B.A. Geosiyosat asoslari. T., 2002.
29. Tolipov F. Bolshaya strategiya Uzbekistana v kontekste geopoliticheskoy i ideologicheskoy transformatsii Sentralnoy Azii. T., 2005.
30. Safojev S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. T., 2005.
31. Bhuvan Garg. Teaching of history. India. New Delhi.: Rajat publications. 2010.
32. James B. M. Schick., Teaching History With a Computer: A Complete Guide for College Professors. USA. 2009.
33. Гринин Л. Е. О стадиях эволюции государства. Проблемы теории // История и современность. 2006. № 1.
34. Государство на Древнем Востоке. М., 2004.
35. Каспэ С.И. Империи генезис, структура, функции // Каспэ С.И. Политические исследования. М., 1997.
36. Subtelny M.E. Timurids in Transition Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. - Leiden-Boston, 2007.

#### **IV. Internet saytlar**

37. <http://natlib.uz>—Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
38. <http://yedu.uz> — O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
39. <http://lex.uz>— O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
40. <http://lib.bimm.uz>— Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
41. <http://ziyonet.uz>— Ta'lim portali Ziyonet
42. <https://tarixinstituti.uz/uzb/Bo'limlar>
43. <http://www.istedod.uz> - "Iste'dod" jamg'armasi sayti
44. <http://www.yedunet.uz> - maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti

## TEST

1. O'qituvchilarning turli xil o'qitish uslublarini birlashtirib yoki ularni alohida qo'llash orqali talabalarda mustaqil o'rganish qobiliyati, dars atmosferasini idrok etish, tushunish va kerakli bilimlarni egallash darajasi yuqori bo'lgan ta'lim jarayoni qanday o'qitish hisoblanadi?

**A samarali o'qitish**

B interfaol o'qitish

C xolisona o'qitish

D an'anaviy o'qitish

2. "... jahondagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganish amalda joriy etishni oldimizda turgan keng ko'lamli vazifalarni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri, deb hisoblaymiz" ushbu gaplar prezidentimizning qaysi asarida keltirilgan?

**A "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz"**

B "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligini garovi"

C "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik"

D "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik milliy g'oyamizning poydevoridir"

3. Samarali o'qitishning nechta asosiy xususiyati mavjud ?

**A 2 ta**

B 3 ta

C 5 ta

D 6 ta

4. Oldingi avlodlar tomonidan tashkil etilgan katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tajribalarni doimiy ravishda keyingi avlodlarga yetkazishga yo'naltirilgan umumiy jarayon nima deb ataladi?

**A Ta'lim**

B Tajriba

C Malaka

D Sifat

5. Falsafiy termin sifatida ob'ekt yoki predmetning barcha muhim xususiyatlari yig'indisi nima deb ataladi?

**A Sifat**

B Talim

C Tarbiya

D Malaka

6. Butun ta'lim tizimi tarkibiy qismlarining sifat vazifalari, murakkab rivojlanish kuchi(dinamika)ga ega bo'lgan jarayon bo'lib, bu ta'lim muassasalari faoliyatidagi o'zgarishlar, ya'ni ularning ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va siyosiy muhitining

o'zgarishiga nima deyiladi?

**A Ta'lim sifati**

B Ta'lim innovatsiyasi

C Ta'lim samaradorligi

D a va b javoblar to'g'ri

7. Ta'lim sifati – bu ?

**A Butun ta'lim tizimi tarkibiy qismlarining sifat vazifalari, murakkab rivojlanish kuchi(dinamika)ga ega bo'lgan jarayon bo'lib, bu ta'lim muassasalari faoliyatidagi o'zgarishlar, ya'ni ularning ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va siyosiy muhitining o'zgarishi**

B Oldingi avlodlar tomonidan tashkil etilgan katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tajribalarni doimiy ravishda keyingi avlodlarga yetkazishga yo'naltirilgan umumiy jarayon

C Talabalarni turli xil faktlar, ko'nikmalar, qadriyatlar va tushunchalarni o'rganishlarini osonlashtirish

D o'qituvchilarning turli xil o'qitish uslublarini birlashtirib yoki ularni alohida qo'llash orqali talabalarda mustaqil o'rganish qobiliyati, dars atmosferasini idrok etish, tushunish va kerakli bilimlarni egallash darajasi yuqori bo'lgan ta'lim jarayon.

8. “.....mohiyatan tarix o'tmishni o'rganish va bizning bilimlarimiz va fikrlarimizni bir vaqtning o'zida tasdiqlash usulidir”ushbu fikrlar kimga tegishli?

**A J. Slater**

B P.V.Goran

C A.A.Vagin

D .S.Leibengrub

9. Tarix tushunchasining g'arbdagi muqobili bo'lgan "history" qadimgi yunon tiliga tegishli bo'lib, qanday manoni anglatadi?

**A Izlanish**

B ixtiro qilish

C Tahlil qilish

D Axborot berish

10. ....tadqiqot sohasini, muammoni yoki mavzuni aniqlash, ushbu mavzu yoki muammoga tegishli gipotezalarni ishlab chiqish, olingan dalillar va manbalardan ma'lumot to'plash, ushbu ma'lumotlarni tahlil va tanqid qilish, mavzu bo'yicha boshqa izlanishlarni ko'rib chiqish va mavzuni tushunish, shuningdek mantiqiy asosda izohlangan tadqiqotni ochib berishdan iboratdir?

**A Tarixiy metodologiya**

B Tarixiy impatiya

C Tarixiy tanlov

D Tarixiy innovatsiya

11. Empatiya yunoncha qanday mano beradi?

A "ehtiros"

B "azob"

C "tuyg'u"

D **barcha javob to'g'ri**

12. Tarixiy empatiya nima ?

**A tarixiy hodisalar va tarixiy shaxslar hayotini o'zida his etish demakdir.**

B boshqa odamning hozirgi hissiy holati bilan ongli hamdardlik ma'nosini bildiradi.

C o'tmish odamining o'rniga o'zini qo'yish, uning fikrlarini, harakatlarini tushunish qobiliyati orqali shaxsni rivojlantirish

D barcha javoblar to'g'ri

13. Hikoya orqali bolalarda empatiya shakllanishiga hissa qo'shish uchun kim tomonidan aytilganidek turli xil maxsus vositalardan foydalanish talab etiladi. Tarixiy hodisalarni jonlantirish orqali tarixiy mavzu yanada ishonchli bo'lishiga erishiladi va o'rganilayotgan tarixiy hodisalarning o'ziga xosligini yaxshiroq ochib berishga imkon beradi.

**A A.A.Vagin**

B P.V.Goran

C P.S.Leibengrub

D J. Slater

14. Ingliz tadqiqotchisi Graham Swift in Husbands fikriga ko'ra o'tmish haqida turli yo'llar bilan tushunchalarga ega bo'lish, tarixiy shaxslarining qarashlari, e'tiqod va faoliyatlarini izohlash va tarixchilar tomonidan tarixiy jarayonlarni ifodalashlari uchun qo'llaniladigan, tarixiy ifoda va tushunchalarni o'zida jamlagan maxsus til nima deb nomlanadi?

**A "tarixiy til"**

B "adolatli til"

C "To'ldirilgan til"

D "Samarali til"

15. Tarixga va tarixchi kasbiga yangicha yondashuvlar tarafdorlari "Annallar" maktabi vakillari yani kimlar jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarini o'rganish o'rtasidagi uzilishni yo'qotib, ularni uyg'un ravishda o'rganish g'oyasini ilgari surganlar?

**A M.Blok va L.Fevr**

B P.V.Goran, A.A.Vagin

C A.A.Vagin, P.S.Leibengrub

D L.Fevr A.A Vagin

16. "Bir-biriga yaqin va uzoq bo'lgan fanlar o'rtasida aloqa o'rnatish, bu fanlarning

kuchini bitta tadqiqot obyektiga qaratish ulaming o‘z-o‘zini cheklashini va yakkalanishini tugatadi. Gap faqat bir-biridan tushunchalar o‘zlashtirish haqida emas, balki tadqiqot uslublari va ulaming mohiyatini o‘zlashtirishdan iboratdir” ushbu fikrlar kimga tegishli?

**A L.Fevr**

B M.Blok

C A Vagin

D barchasiga tegishli

17. XIX - XX asrlarda qanday mustaqil fanlar vujudga keldi

1 sotsiologiya 2 psixologiya 3 tarixiy va ijtimoiy psixologiya 4 antropologiya 5 metologiya xronologiya 6 matematika 7 pedagogika

**A 1 2 3 4**

B 1 6 7 2

C 1 2 5 7

D 1 2 6 7

18. “Annallar” maktabi ikkinchi avlodi rahbari kim?

**A F.Brodel**

B L.Fevr

C M.Blok

D A Vagin

19. Kimning fundamental tadqiqoti “Moddiy sivilizatsiya, iqtisod va kapitalizm” deb atalib, XX asrda insoniyat tarixini yaxlitlikda yarata olgan asar sifatida tanilgan.

**A F.Brodel**

B M.Blok

C L.Fevr

D A Vagin

20. “Annallar” maktabi asoschilari “eski” tarixchilar, ya’ni asosan siyosiy va diplomatik tarix tarafdorlari bilan kurashi XX asrning 50-yillarida G‘arb tarixshunosligida “yangi tarix”ning, ya’ni ijtimoiy va iqtisodiy tarixning g‘olib chiqishiga olib keldi ushbu maktab asoschilari kim edi?

**A M.Blok va L.Fevr**

B F.Brodel P.V.Goran,

C P.V.Goran, A.A.Vagin

D P.S.Leibengrub M.Blok

21. Tarixiy tadqiqotlarda mikro va makroyondashuvlarni birgalikda ishlatgan olim kim ?

**A F.Brodel**

B A Vagin

C L Fevr

D M.Blok

22. Ma'lumki O'zbekiston tarixi sovet davrida eng qadimgi davrdan boshlab nechta taraqqiyot bosqichiga bolingandi?

**A 5 ta**

B 6 ta

C 3 ta

D 4 ta

23. Nechanchi asrlarda o'zbek davlatchiligi Amir Temur va Temuriylar davrida o'zbek davlatchiligi, O'rta Osiyo hududlarining xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari, Rossiya imperiyasining Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati, Sovetlar davri siyosati va Mustaqil O'zbekiston davlati tarixiy davrlariga bo'lindi?

**A IX-XII asrlarda**

B X-XI asrlarda

C XII-XV asrlar

D IX-XIII asrlarda

24 Yoshlarga oid qonun, qaror va davlat dasturlari qabul qilindi hamda izchil ravishda hayotga tatbiq etilmoqda. Bu siyosatning mazmun-mohiyati, asosiy yo'nalishlari, yoshlarga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy kafolatlar O'zbekiston Respublikasining nechanchi yildagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonunida belgilab qo'yilgan?

**A 1991-yil 20-noyabrda**

B 1992-yil 20-noyabrda

C 1993-yil 20-noyabrda

D 1994-yil 20-noyabrda

25. Xalqimizni o'z tarixi bilan qurollantirish ma'naviyat va milliy mafkurani shakllantirish sohasidagi kechiktirib bo'lmas vazifa ekanligi Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan mamlakatning tarixchi olimlari va jurnalistlari bilan o'tkazilgan suhbatida hamda qanday nomli asarida o'z ifodasini topgan?

**A "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q"**

B "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch"

C "Tarix xalq ma'daniyatining asosidir"

D a va b javoblar to'g'ri

26 Xalqimizning otashqalb farzandi, mamlakat taraqqiyoti yo'lida fidokorona xizmat qilgan, ijtimoiy va ijodiy faoliyati bilan milliy adabiyot va madaniyat rivojiga katta hissa qo'shgan atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidovning yorqin xotirasini ulug'lash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qachon "Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida" gi qarorga imzo chekdi?

**A 2017-yil 27-mart kuni**

B 2016-yil 27-sentabr kuni

C 2017-yil 17-mart kuni

D 2016 yil 17- sentabr kuni

27. Beruniy “Osorul-boqiya anil-qurunil-xoliya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) asarini Juijonda yoza boshlagan va necha yilda tamomlagan?

**A 1000 yilda**

B 1200 yilda

C 2000 yilda

D 1500 yilda

28. Beruniy Juijonda astronomiya, metrologiya tarixiga oid nechadan ortiq asar yozdi?

**A 10 dan ortiq**

B 15 dan ortiq

C 20 dan ortiq

D 25 dan ortiq

29. Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy tomonidan Tarix at-Tabariy. “Tarix al ummat val-muluk” (“Xalqlar va malik (podsho)lar tarixi”) asari yozilgan va bu asarda Odam alayhissalomdan o’zi yashagan asrgacha bo’lgan tarixni isbotlari bilan keltiradi, bu asar necha yilda yozilgan?

**A 7 yilda**

B 6 yilda

C 5 yilda

D 8 yilda

30. G’arbiy Yevropa adabiyotida “sivilizatsiya” tushunchasi nechanchi asr o’rtalarida vujudga kelgan?

**A XVIII asr o’rtalarida**

B XVII asr o’rtalarida

C XVI asr o’rtalarida

D XIX asr o’rtalarida

31. Abulg’ozi Bahodirxon yetuk tarixchi olim sifatida e’tiborga sazovordir. Uning “Shajarayi tarokima” va “Shajarayi turk” asarlari O’rta Osiyo xalqlari tarixiga oid qimmatli manbalardan hisoblanadi. Abulg’ozixonning bu asarlari qaysi tillariga tarjima qilinib chop etilgan?

**A rus, fransuz, nemis**

B rus ,turk ,nemis

C rus, arab

D rus, o’zbek, nemis

32. Jome’ ut-tavorix” (Solnomalar majmuasi) qomusiy olim Rashiddin Fazlulloh ibn

Imomuddavla Abulxayr tomonidan nechanchi yillarda yozilgan?

**A 1302-1311-yillarda**

B 1303-1312-yillarda

C 1203-1311-yillarda

D 1304-1312-yillarda

33. “Jome’ ut-tavorix” (Solnomalar majmuasi) qomusiy olim Rashiddin Fazlulloh ibn Imomuddavla Abulxayr tomonidan 1302-1311-yillarda yozilgan va u necha qismdan iborat?

**A 3 qismdan**

B 2 qismdan

C 4 qismdan

D 5 qismdan

34. Rashiddinning “Jome’ ut-tavorix” asari Sharq va G‘arb olimlarining e’tiborini ko‘pdan beri jalb etib kelyapti. XV asrda Eronning yirik tarixchilaridan biri “Jome’ ut-tavorix”ning davomini yozib, Eron tarixini nechanchi yilgacha davom ettirgan?

**A 1371-yilgacha**

B 1372-yilgacha

C 1373-yilgacha

D 1374-yilgacha

35. Nechanchi asrda Yevropa ma’rifatparvarlari - Volter, Monteske, Golbax, Russo va boshqalar - tarix qonuniyatlari haqidagi masalani ko‘tarib chiqishdi?

**A XVIII asrda**

B XVII asrda

C XVI asrda

D XIX asrda

36. Kim tarixning materialistik konsepsiyasini yaratdi?

**A K.Marks**

B V.N.Tatishev

C S.M.Solovev

D V.O.Klyuchevskiy

37. Tarix fani rivojiga katta hissa qo‘shgan mashhur sotsiologlar kimlar edi?

**A Maks Veber va P.A.Sorokinlar**

B V.N.Tatishev va N.M.Karamzinlar

C S.M.Solovev va N.I.Kostomarovlar

D N.I.Kostomarov va V.O.Klyuchevskiylar

38. Fransuz tarixchilaridan kimlar antropologiyaga yo‘naltirilgan tarix fanidagi muammolarni ishlab chiqdi, ularning tarix fani rivojlanishiga qo‘shgan hissasi “Kopemik to‘ntarishi” deb baholanadi?

**A M.Blok va L.Fevr**



- B L.Fevr va F.Brodel
- C Maks Veber va P.A.Sorokin
- D F.Brodel va A.Toynbi

39.Agregativ metod nima?

**A barcha tur va ko‘rinishdagi manbalardan olingan tarqoq faktlarni jamlash.**

B bir predmetni tarkibiy qismlarga ajratish orqali ilmiy tadqiqot olib borish usuli.

C o‘rganish uchun tanlangan muammoviy vaziyatni keltirib chiqaruvchi jarayon.

D u yoki bu fanning asosini tashkil etuvchi umumiy tamoyillar, usullar, qarashlar tizimi.

40.Metodologiya bu.....?

**A u yoki bu fanning asosini tashkil etuvchi umumiy tamoyillar, usullar, qarashlar tizimi.**

B tadqiqot usullari va yo‘llari yig‘indisi, ularni qo‘llash tartibi va ular yordamida olingan natijalarni talqin qilish

C bir predmetni tarkibiy qismlarga ajratish orqali ilmiy tadqiqot olib borish usuli

D barcha tur va ko‘rinishdagi manbalardan olingan tarqoq faktlarni jamlash.



